



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 AUGUST
№31**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
31-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
31-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 31-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 42 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Абдуллаева Лола Тахировна ЗНАЧЕНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ.....	7
2. Begmatova Taxmina Sunnat qizi BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI	9
3. Ruziyeva Fazilat Mamayusub qizi BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKILLANTIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR	11
4. Xikmatova Feruza Ubaydullayevna BOLALARNING IJODIY TAFAKKURINI O'STIRISHDA TA'LIMiy O'YINLARNING AHAMIYATI	13
5. Bobojonova Dilrabo Oybek qizi SHARQ VA G'ARB MAMLAKATLARI TA'LIM METODLARINING TAFOVUDI	15
6. Дусалиев Муйсин СОВЕТ ТУЗУМИ ДАВРИДАН МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИГА ҚАДАР ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ	17
7. Erejepova Minayim Omirzakovna MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA BOLAGA SAMARALI TA'LIM-TARBIYA BERISH	19
8. Fayziyeva Nafosat Akmalovna BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI INSHO YOZISHGA TAYYORLASH.....	21
9. Ruzimova Feruza Madrimovna SINF DAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI	22
10. Sharipova Muxlisa Hasanovna ONA TILI O'QITISH METODIKASINING AHAMIYATI	24
11. Тешаева Лола Буриевна ЭФФЕКТИВНЫЕ ПРИЕМЫ И СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	25
12. Tõrayeva Anora Komilovna ONA TILINI O'QITISHDA METODLARNING AHAMIYATI	27
13. Арипжанова Махфуза Акмаловна “ТИКУВ БУЮМЛАРИ ТЕХНОЛОГИЯСИ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАЪЛИМНИНГ КЎРГАЗМАЛИЛИК ТАМОЙИЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАСАВВУР КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	28
14. Тураева Гулрух Мухитдиновна ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ КАК УЧЕБНЫЕ ЕДИНИЦЫ	30
15. Ҳомидов Ҳусниддин Купайсинович ТАЛАБАЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ РИВОЖЛАН-ТИРИШДА ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК МОДУЛИНИ РОЛИ.....	31
16. Айрапетова Алена Геннадьевна О ВЕДУЩИХ МОТИВАХ ВОВЛЕЧЕНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ В ДЕСТРУКТИВНЫЕ РЕЛИГИОЗНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ.....	34
17. Маматқулова Кимёхон Абдужалиловна ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ ТРАЕКТОРИЯСИ АСОСИДА КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР	38
18. Мирахмедова Дилфуза Аскарровна, Тешабоева Холида Якубовна ЎҚИТУВЧИЛАР ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ПРОФИЛАКТИКА ИШЛАРИНИНГ ШАКЛЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ.....	40



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ЗНАЧЕНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Абдуллаева Лола Тахировна
(СамГИИЯ)

Аннотация: В статье рассматриваются электронные образовательные ресурсы, которые являются одной из самых ценных составляющих образовательной информационной среды. Именно в образовательных ресурсах концентрируется содержательная составляющая учебного процесса.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limiy axborot muhitining eng qimmatli komponentlaridan biri bo'lgan elektron ta'lim manbalari muhokama qilinadi. Aynan ta'lim resurslarida o'quv jarayonining mazmuni jamlangan.

Abstract: The article discusses electronic educational resources, which are one of the most valuable components of the educational information environment. It is in the educational resources that the content of the educational process is concentrated.

Ключевые слова: Электронные образовательные ресурсы, информатизация, социолингвистическая компетенция, профессиональная компетентность.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim resurslari, axborotlashtirish, sotsiolingvistik kompetentsiya, kasbiy kompetentsiya.

Key words: Electronic educational resources, informatization, sociolinguistic competence, professional competence.

Расширение международных политических, экономических и культурных связей со странами ближнего и дальнего зарубежья за последние годы обозначило нехватку молодых образованных кадров со знанием иностранных языков и современных информационных технологий, которые смогли бы представлять нашу страну на международной арене, раскрыть ее достойный научный и технический потенциал, насыщенную красочную историю и культуру. В связи с этим встает вопрос о формировании профессиональной компетентности будущих специалистов иностранного языка посредством информационно-коммуникационных технологий с учетом требований мировых стандартов и рынка труда.

Электронные образовательные ресурсы являются одной из самых ценных составляющих образовательной информационной среды. Именно в образовательных ресурсах концентрируется содержательная составляющая учебного процесса. Значение электронных ресурсов в учебном процессе существенно большее, чем у обычных бумажных пособий, поскольку новые образовательные технологии предполагают сокращение персональных контактов преподавателя и учащегося с увеличением доли самостоятельной подготовки. Поэтому электронные учебные материалы принимают на себя поддержку части тех компонент обучения, которые в стандартном учебном процессе обеспечиваются очным общением преподавателя и студента [1, 24].

Как известно, информатизация учебного процесса должна быть приоритетной среди процессов информатизации других сфер производства, так как именно сфера образования формирует основы овладения информационными технологиями, информационной культуры всего общества [2, 36]. Знание программных продуктов, использование ЭОР в процессе совершенствования социолингвистической компетенции у студентов высших образовательных заведений, изучающих английский язык способствует эффективности и быстрой результативности обучения. В свою очередь, преподаватели сами должны обладать четкой информационно-компьютерной грамотностью в процессе применения



инновационных технологий в учебном процессе. В процессе подготовки к занятию и непосредственно во время занятия преподавателю нужно не только соблюдать основы дидактических принципов систематичности, последовательности, и доступности информации, и др., но и использовать все возможности современной техники. Данный аспект способствует быстрому освоению, преобразованию и использованию студентами в практической деятельности большого количества информации, а также активной работе на занятиях, результативности и оценке проделанного задания.

Успешное формирование и совершенствование социолингвистической компетенции у студентов-филологов, изучающих английский язык, предусматривает построение обучения на основе личностно-ориентированного, коммуникативного и компетентностного подходов.

ЭОР при обучении социолингвистической компетенции на английском языке можно применять при изучении всех составляющих данной компетенции, а именно студенты-филологи должны уметь выявлять языковые маркеры социальных отношений. Обучить их этому можно посредством интерактивных ЭОР.

Необходимо отметить, что процесс формирования социолингвистической компетенции в процессе обучения студентов-филологов английскому языку еще не обрел своей окончательной формы как в плане теоретического обоснования, так и в применении на практике наиболее эффективной методики. В этой связи встает вопрос о разработке и внедрении методических средств обучения, под которым подразумевается комплекс упражнений и коммуникативных заданий. Разработанный нами комплекс упражнений и заданий обладает предметно-тематическим содержанием, отраженным в Программе обучения по дисциплине «Основной иностранный язык (английский)», который предполагает овладение студентами функциональными языковыми и речевыми средствами (идиомы, фразы-клише), используемыми в общении с носителями языка, и в социальном взаимодействии.

Основными темами обучения социолингвистической компетенции являются «Знакомство», «Семья», «Дружба», «Моя страна», «Учеба», «Мой дом», «Город», «Погода», и др. Данные темы могут повторяться на новом уровне, усложняясь и дополняя уже усвоенную. Каждая тематика должна отражать культуру и традиции страны, формируя объективную картину мира носителей иностранного языка. Центральное место в каждой теме занимает текст, содержание которого максимально приближенно к реалиям изучаемого иностранного языка. По ходу усвоения материала и усложнения тем можно вводить аутентичные тексты, отражающие речевые реалии носителей языка.

Список Использованной Литературы

1. Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов узбеков (на материале консонантизма). Автореф. дис... канд пед наук.-Т., 1087,24с.,
2. Гаврилова Т.А., Хорошевский В.Ф. Базы знаний интеллектуальных систем. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 384 с.
3. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с



BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Begmatova Taxmina Sunnat qizi.

Surxondaryo Viloyati "Termiz"

davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi

normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Biologiya zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarda AKTdan foydalanishda xamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni xal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olgan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan taxlil qila olish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishga ko'mak berishga qodir bo'lishligi kerak bo'ladi. metodlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: suhbat metodi, hikoya metodi, ma'ruza metodi, ko'rgazmali metodlar, ko'rgazmali dasturlar.

XXI asr – yangi axborot texnologiyalari asri. Ushbu davrda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lmay turib zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirib bo'lmaydi. O'quvchilarda xayotiy zarur bo'lgan XXI asr bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishlari ularni keyingi xayotga tayyorligining bosh me'zoni hisoblanadi. Ushbu sharoitda zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalari ham o'zgarib boryapti, an'anaviy ta'lim yondoshuvidan XXI asr ta'lim yondoshuviga, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tilmoqda.

Bunday ta'lim yondoshuvning asosida o'quvchi shaxsining to'la rivojlanishi, tez o'zgaruvchan hayotga har taraflama tayyor bo'lishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'lgan axborot makonida axborotlarni tanqidiy nuqtai nazaridan to'g'ri izlash, tanlab olishni, oldida turgan muammolarni nafaqat ko'ra bilish, balki ularni ifodalash va xal eta olish yotadi.

Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishimizni talab etadi. Shu o'rinda Kreyg Barretning so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi: «Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi». Ya'ni, axborot texnologiyalari vositalari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi. AKTni ta'lim jarayoniga joriy etish o'qituvchilardan bir qator ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va faoliyatiga oid xujjatlarni tayerlashda matn muxarriridan samarali foydalanish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, tarmoq ichida ma'lumotlarni izlash va muloqot qilish. Ushbu vazifalarni bajarishda o'qituvchilardan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlik talab etiladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'z ichiga juda ham ko'plab ko'nikmalarni oladi. Shular ichidan o'qituvchilar tomonidan kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlikning eng kerakli va zarur bo'lgan tayanch qismini ajratib olish muhimdir.

- Kompyuter haqida tushunchaga ega bo'lish va uning ishlash prinsiplarini bilish (asosiy va qo'shimcha qurilmalari haqida ma'lumotga ega bo'lish);

- Dasturiy ta'minot haqida bilimlarga ega bo'lish;

didaktik materiallar va ishchi xujjatlarni tayyorlashda matn muxarrirlari, elektron jadvallar va boshqa amaliy dasturlar to'plamidan foydalana olish; internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanishni bilish.

Yuqorida keltirilgan ko'nikmalar AKT savodxonligiga erishish uchun zarur bo'lgan minimal ko'nikmalar hisoblanadi. Bugungi kun o'qituvchisi uchun axborot texnologiyalari uning kasb faoliyatidagi vazifalarnigina (dars rejasini tuzish, taqdimotlar yaratish, Internet tarmog'idan o'z faniga oid materiallarni to'plash) bajarish uchun emas, balki o'qitadigan fani yuzasidan didaktik materiallar yaratish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishda AKT vositalaridan foydalanish (kompyuter tarmog'i orqali turli vazifalar berish, Internet resurslarini yaratish va ularda ta'lim materiallarini joylashtirish) uchun ham xizmat qilishi kerak.

O'qituvchilar AKT savodxonligiga ega bo'lish bilan chegaralanib qolmasdan, AKT vositalaridan ta'lim samaradorligini oshirish yo'lida to'g'ri foydalanish metodikasiga ham ega bo'lishlari zarur. Ya'ni, har bir fan o'qituvchisi o'zining darsida AKT vositalaridan didaktik vosita sifatida foydalana



olishlari zarur. Shu sababli, malaka oshirish kurslarida nafaqat kompyuter savodxoniligiga oid mashg'ulotlarni, balki AKTdan foydalanish metodikasiga oid mavzularni ham o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taxlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan o'qituvchilar ham dars jarayonida AKT vositalaridan samarali foydalana olmaydilar. Ushbu xolat ko'plab davlatlarning ta'lim tizimiga xos bo'lgan muammodir. Ko'rinib turibdiki, aktuallik jihatidan AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasi AKT savodxonligiga ega bo'lishlikdan ko'ra muhimroq xisoblanadi. AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasiga oid ko'nikmalarga matn va jadval muharrirlari yordamida pedagogik vositalar yaratishda ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni (matn muharririda formulalar kiritish, jadval muxarrirlarida funksiyalarning grafiklarini yaratish va b.) ta'kidlab o'tish mumkin. Bundan tashqari, ushbu metodika AKT vositalaridan darsning qaysi qismida, qancha vaqt davomida foydalanishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarda AKTdan foydalanishda xamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni xal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olgan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan taxlil qila olish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishga ko'mak berishga qodir bo'lishligi kerak bo'ladi. Har bir fan o'qituvchisi dars jarayoniga AKT vositalarini joriy etar ekan, ularning tuzilishi va ishlash prinsiplaridan xabardor bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. U.N. Tashkenbayev "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" Jurnal "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019

2. I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboyev Biologiya darslik "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2017



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKILLANTIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Ruziyeva Fazilat Mamayusub qizi
Surxondaryo Viloyati "Termiz"
davlat muzey-qo'riqxonasi
ta'biat bo'limi bosh mutaxassisi
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya o'quv dasturda belgilangan tayanch kompetensiyalarni biologiya darslarida shakllantirishdagi o'qituvchi va o'quvchi bilan bo'g'liq muammolar va ularni yechimiga oid tavsiyalar berilgan.

Kalitso'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

O'quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi. O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat biologiya o'quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Biologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi - biologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'lay olish qobiliyatidir.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil, etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Quyida biologiyani o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish imkoniyatlari yuzasidan fikr yuritiladi. Biologiya o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda biologiya darslarida o'quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo'ladigan og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati me'yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslangan holda o'z fikrini himoya qilish va ishonтира olish, darslarda tashkil etiladigan o'quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish, o'z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o'zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda biologik kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o'quv va videofilmlardan foydalanishi, qo'shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma'lumotlarni saralashi, shu asosda o'quvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'z o'rnida foydalanishi zarur.

Biologik ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish



kompetensiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.

Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishda biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarni tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatish, saxovatli bo'lishga undash zarur.

O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini tarkib toptirishda o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o'rin tutadi.

Biologiya darslarida gul formulasi asosida gulning tuzilishini izohlash, modelini sharhlash, gul diagrammasini chizish, iqtisodiy foyda keltiradigan biologik masalalardan foydalanish tavsiya etiladi. Yuqorida qayd etilgan fikrlar biologiyani o'qitishda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish barobarida ularda umumiy (predmetli) kompetensiyalarni tarkib toptirishga ham e'tibor qaratishi lozim. Mazkur jarayonda biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o'quv fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalga qo'llashiga zamin tayyorlaydigan fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib umumiy kompetensiyalarni tarkib toptirishni loyihlashi lozim.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, biologiya o'qituvchisi o'rganiladigan mavzuning mazmunini tahlil qilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo bog'lanishni amalga oshirish yo'llarini belgilashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova J.O., Azimov I.T., Sultonova N.B. Biologiyadarslari. (O'qituvchi kitobi) O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent-2016 y.

2. Mutalipova M., Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.: TDPU, 2017



BOLALARNING IJODIY TAFAKKURINI O‘STIRISHDA TA’LIMIY O‘YINLARNING AHAMIYATI

Xikmatova Feruza Ubaydullayevna

Shayhontohur tumani 321-son ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan
Davlat Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining tafakkurini o‘stirishda, bolalarning xotirasini, diqqatini rivojlantirishda o‘yinlarning ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: xalq pedagogikasi, milliy o‘yinlar, ta’limiy o‘yinlar, tafakkur.

Bolalar o‘yinlari xalq pedagogikasining asosiy vositasidan biri bo‘lib, asrlar davomida rivojlanib, yangilanib boradi. O‘yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy va kamolatga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O‘yin orqali bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof-muhit haqidagi bilimi va malaka kunikmalari yanada kengayib boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatidan to‘g‘ri va unumli foydalanish har-bir o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va tadbirlar o‘yin faoliyatining samaradorligini oshirib boradi. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida o‘yin faoliyati turli xil shaklda voqeaband-ijroli, harakatli, ta’limiy, musiqiy kabi yo‘nalishda olib boriladi. O‘yin bolalar uchun qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun tarbiyachi o‘yin qoidasi va mazmuni bilan yaqindan tanish bo‘lishi hamda bevosita faol ishtirokchiga aylanishi kerak.

O‘yin mashg‘ulotlarida voqeaband-ijroli o‘yinlar orqali bolalar tafakkuri kengayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Shuningdek obrazli o‘yinlar orqali bolalarda ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o‘zaro munosabatlari, turmush tarzini kechirish yo‘sinlari bilan tanishib boradi.

Bolalar hamisha kattalarga taqlid qilishadi, qo‘g‘irchog‘ini erkalayotgan qizcha onasining so‘zini takrorlaydi, qo‘g‘irchog‘ini beshikka belab alla aytadi, mana shu birgina o‘yin orqali unda oila sharoitidagi ko‘nikmalar hosil bo‘layotganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari *“Shifokor”*, *“Sartaroshxona”*, *“Do‘konda”*, *“Quruvchilar”*, *“Tikuvchilar”*, *“Bog‘cha”*, *“Maktab-maktab”* kabi o‘yinlar vositasi orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o‘zgalarni mehnatiga hurmat, ahil, inoqlilik, shirin suhanlik kabi hisrlari o‘stirib boriladi.

Bolalar yoshiga mos ertaklardan, *“Sholg‘om”*, *“Bo‘g‘irsoq”*, *“Zumrat va Qimmat”*, *“Ikki echki”* kabilarni sahnalashtirish, qo‘shiqlarni, she‘rlarini, yod oldirish bilan bola xotirasi rivojlanadi. Shuningdek bolalarda fikrni to‘plash qobiliyati, so‘z boyligi, nutq faoliyati, estetik madaniyati, ijrochilik mahorati, o‘ziga bo‘lgan ishonch kabi qobiliyatlarini tarkib topishiga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlar bolalardan epcillikni, chaqqonlikni, diqqatni bir joyga jamlashni, sezgirlikni talab qiladi. Xalq o‘yinlaridan *“Ismingni eslab qol”*, *“Ko‘z bog‘logich”*, *“Oq terakmi ko‘k terak”*, *“Qushim boshi”*, *“To‘p-tosh”*, kabi o‘yinlari orqali bolalarda harakat faoliyati rivojlanib, jismoniy quvvati oshirilib, o‘zligiga ishonch ruhi o‘stirib boriladi. Shu bilan bir qatorda turli o‘yinchoqlar bilan o‘ynash to‘p, arqoncha, ot, arava, veloseped kabi predmetlar bilan o‘ynaladigan harakatlar orqali ularning qalbida musobaqalashish hislari uyg‘onib boradi.

Bolalarni sport bilan shug‘ullantirish avvalo oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi xonalarida emaklash, sirpanish, tirmashib chiqish, arqon tagidan o‘tish mashqlarini o‘rgatish va shunga doir quyidagi: *“Ona tovuq va jo‘jalar”*, *“Arqonga tegmay o‘tchi”*, *“Olishish”*, *“Tortishmachoq”* kabi o‘yinlarni bolalarga o‘rgatish orqali diqqatni jamlash kabi xususiyatlar rivojlanib boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’limiy o‘yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik va masalaga ongli yondashish malakasi o‘stirib boriladi.

Ta’limiy o‘yinlar ko‘rgazmalilik, oddiydan murakabga o‘tish usullari orqali tarbiyachi tomonidan faollashtiriladi va mustaqil harakat qilish qobiliyati shakllantirib boriladi. Ta’limiy o‘yindan to‘g‘ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi va aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarning eshitish, ko‘rish, sezish a‘zolari rivojlanib, turli narsani yasashda ishlatiladigan materiallarni bir-biriga taqqoslashni va guruhlariga ajratishni o‘rganadilar. Ta’limiy o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarning kichik guruhlarida quyidagi mavzularda o‘tkaziladi.



- **O‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar:** “Ayiqlarga nima kerak”, “Jajji oyoqchalarimiz”, “Zumrat uchun ko‘ylaklar” va boshqalar.

- **Stol ustiga qo‘yib o‘ynaladigan o‘yinlar:** “Nima qayerda yuradi”, “Men aytgan narsani ko‘rsat”, “Kimni qo‘lida nima bor” va boshqalar.

- **Og‘zaki usuldagi ta’limiy o‘yinlar:** “Qo‘g‘irchoq Lolaxon mexmonga keldi”, “Ajoyib xaltacha”, “Shaklini top”. “Rangini top ” kabi o‘yinlar kiradi.

- **Eshitish va ko‘rish a‘zolarini faollashtirish uchun:** “Qaysi daraxtning mevasi”, “Nimani pati”. “Mevasini top”. “Onasini top”, “Mevalar va barglar”, “Damino”. “Yovvoyi va uy hayvonlari”, “Ishlash uchun nima zarur”. “Bu uychada qanday hayvon yashaydi”, “Bu kim yoki nima?” singari o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, hayvon va parandalar, yil fasillari, kiyim-kechak va boshqalar, kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, kurish va eshitish, esta saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi.

Bolalar qalbida musiqaga bo‘lgan muhabbat hissini oshirishda musiqiy –ta’lim o‘yinlarning roli beqiyosdir. Tarbiyachi bolalarga turli hil musiqa asboblarini ko‘rsatib, chalib berish orqali, cholg‘u asboblarining ovozi va tuzilishi turlari bilan tanishtirib boradi. “Ovozidan top”, “Nimada chalyapman”, “Qo‘ng‘iroq qanday jaranglayapti ”, kabi o‘yinlar orqali tarbiyachi bolalarga ovoz va cholg‘u asboblarining tovush xususiyatlarini farqlashga o‘rgatadi. Maskur mavzulardagi “Tapur –tupur qayrog‘och”, “Tomga tosh otdim” “O‘ynab ber”, “Mushtum va kaftchalar ”, “Yomg‘ir ” kabi milliy o‘yinlar orqali bolalarni musiqa ritmiga mos harakat, o‘yinli qo‘shiqni ijro etish, qarsaklar va mimik harakatlarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatib boriladi. Bu xildagi o‘yinlar orqali kichkintoylar mustaqil fikirlashga, ijodkorlik, hayotiy tassurotlardan xulosa chiqarishga o‘rganib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shodmonov Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: 2008
2. Musurmonova O., Boybekova G. O‘zbek xalq pedagogikasi. – T.: 2000
3. Qoraboyev. U. O‘zbekiston xalq o‘yinlari. – T.: 2006



SHARQ VA G'ARB MAMLAKATLARI TA'LIM METODLARINING TAFOVUDI

Bobojonova Dilrabo Oybek qizi

Urganch davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
"Texnologik ta'lim" yo'nalishi 192- guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda Sharq va G'arb talim tizimlari ularning yutuqlari hamda kamchiliklari, bir-biridan farqli jihatlari o'tmishda yashab ijod qilgan allomalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, metod, g'oya, dunyoqarash, G'arb, Sharq, munozara, demokratya, o'qituvchi, o'quvchi.

Insoniyat qadim qadimdan taraqqiyotga intilar ekan yanada yaxshiroq yashash maqsadida turli tuman kashfiyotlarni yaratdi bu esa ilim fanni paydo bo'lishiga yuksalisiga sabab bo'ldi. Dunyo taraqqiyoti tarixiga nazar soladigan bo'lsak asosan ikkita tushuncha qarama-qarshiligiga duch kelamiz: bular, sharq va g'arb tushunchalaridir. Bu tushunchalar ta'lim tizimida ham bir-biri bilan solishtiriladi. Sharq qadim-qadimdan ilm fanning dastlabiki rivojlangan hududi sifatida ko'pchilik tomonidan tan olinib kelingan. Bu ikkala ta'lim tizimlari metodlarida bir-biridan mutlaqo farqlanuvchi jihatlari o'ziga yarasha yutuqlar hamda kamchiliklar mavjudligi sir emas. Sharq hamda G'arb talimi o'quvchilarning shaxsiyati shu bilan birga dunyoqarashini shakllantirishda hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan bir-birdan keskin farqlanadigan shu bilan bir qatorda natijalari ham turlicha bo'lganligi metodlardan foydalanadilar. Agarda biz ikkala mintaqadagi ta'lim tarbiya jarayonlarini taqqoslaydigan bo'lsak ular orasida yaqqol ko'zga tashlanadigan quyidagi bir nechta farqlar mavjudligiga amin bo'lishimiz mumkin.

Bulardan birinchisi yoshlar (o'quvchilar) o'zlarining bu jarayondagi o'rnini qay darajada baholay olishi.

Sharq mamlakatlaridagi maktablarda bolalarning yutuqlariga erishgan natijalariga ta'sir qiladigan asosiy omil bu tartib qonun qoida intizom hisoblansa, g'arb mamlakatlarida o'quvchilarni baxs munozaralarda ularning erkin ishtirok etishida, g'oyaviy qo'llab quvvatlanishida ko'proq e'tibor berilishi seziladi. G'arbda asosiy e'tibor kuch sarflashga qaratilgan, lekin sharqdagi kabi birxil standartdagi kabi sinovlar unchalik ham ko'p emas. G'arb mintaqasida ta'limga maqsadga erishishning asosiy vositalaridan bi sifatida qaralsa, sharq esa talimni shaxsni axloqiy tarbiya qilishda kattaroq e'tibor berishi bilan ajraladi bu ular orasidagi yana bir farq hisoblanadi.

G'arb muvaffaqiyatga erishishning yagona yutug'i sifatida shaxsga e'tibor qaratadi. O'quvchilar dars jarayonida o'zlariga taqdim etilgan masalaga o'zlarining fikrlarini ochiq oydin bildirishlari mumkin. Bunga sabab G'arbda asrlar davomida shakllangan erkinlik va demokratiya g'oyalari bo'lishi mumkin. Sharqda esa o'quvchilar yomon baholashdan qo'rqib o'z fikrlarini erkin bayon qila olmasliklari kuzatiladi. Ta'lim tarbiya jarayonida qadimda yashab o'tgan allomalar olim-u fuzalolar ham qimmatli ma'lumotlar ilmiy risolalar qoldirganlar. Bu jihatdan qaraydigan bo'lsak sharq allomalari g'arbgacha nisbatan ancha katta merosga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, pedagogik qarashlarni ilgari surgan hamda ilk uyg'onish davrida yashab ijod qilgan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobiy, Kanfutsiy, Alisher Navoiy kabi yana bir qancha shaxslarni sanab o'tishimiz mumkin. Aslida g'arb ham sharqdan ta'lim jarayonini katta qismini o'zlashtirgan desak yanglishmaymiz. Bunda yuqorida sanab o'tilgan olimlarning ilmiy boyliklari katta o'rin egallaydi.

Yana zamonaviy ta'lim tizimidagi farqlarga qaraydigan bo'lsak sharqda ta'lim jarayonida o'qituvchining hokimiyati (ustunligi) yaqqol seziladi. Bunda o'quvchilar ustozning so'zlarini shubhasiz to'g'ri deb qabul qilishadi. Shu sababli o'quvchilar tomonidan beriladigan savollar ritorik hisoblanadi. G'arb ta'lim tizimida esa sinfda yoki guruhda biror mavzu yuzasidan muhokamalar bo'lib o'tadi. Bu jarayonda o'quvchilar turlicha yangi fikrlar bildiradilar hamda shu bilan bir qatorda muammoga original yechim topadilar. Shu tarzda talabalar boshqalarning g'oyalarini tinglashadi, bu ularning nafaqat o'qituvchilardan balki o'z tengdoshlarini fikrini tinglagan holda yanada ko'proq bilimlarni egallashiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyatning taraqqiyotida shaxslarning o'rnini qay darajada muhim bo'lsa kadrlarning yuqori darajada ilmliligi ham muhim hisoblanadi. Bu esa ularning fikrlashida dunyoqarashida hamda muammoga duch kelganda original yechim topa olishda



namoyon bo'лади. Sharq ahloqiy tarbiyani ta'lim jarayonida ustunroq qo'ysa G'arb aksincha shaxni erkin fikrlashga mustaqil fikr bayon qila olish qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. J. Fozilov, R. Sultonov, H. Saidov. «O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish» Toshkent "Sharq" 2000 yil.
2. R.H. Jo'rayev, O'.Q. Tolipov, Sh.S.Sharipov. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. T. "Fan" nashriyoti. 2004 yil.



СОВЕТ ТУЗУМИ ДАВРИДАН МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИГА ҚАДАР ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ

Дусалиев Муйсин
Сиртки бўлим услубчиси
Қарши давлат университети
Қашқадарё, Ўзбекистон
muysindusali2021@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада совет тузум давридаги 1945 - 1980 йиллар мустақиллик йилларига қадар халқ таълими тизимида совет ҳукумати таъсирида ташкил қилинган мактаблардаги мавжуд муаммоли ҳолат ҳамда мазкур муаммонинг бугунги кунда таълим тизмига таъсири хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: халқ таълим тизми, марказ ҳукумати, ислохотлар, таълим муассасаси, совет ҳокимияти.

Ўзбекистон ССРда мактабларда таълим тизimini такомиллаштиришга дастлабки қадам 1957 йилда ташланди. Бу дастлабки қадам Ўзбекистон ССР Олий Советининг 1957 йил 1 октябрдаги сессиясида “Ўзбекистон ССРда мажбурий етти йиллик таълимни тўлиқ амалга ошириш тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилиниши билан боғлиқдир. Бу янги қабул қилинган қонунга кўра барча учун умумтаълим мактаблари мажбурий бўлганлиги белгиланди. Бироқ бу қабул қилинган қонун билан республика мактабларидаги мавжуд камчиликлар ўз ечимини топмади. Аксинча, умумтаълим мактаблари ҳақиқий ҳаётдан ажралиб қолди. Ўқувчиларга берилаётган билимлар ўша давр дунё ҳамжамияти яъни ривожланган мамлакатлардаги таълим тизими билан қиёслаганда фан-техника тараққиёти даражасида эмасди. Шу боисдан 1959 йил мартда Ўзбекистон Олий Совети “Мактабнинг ҳаёт билан алоқасини мустаҳкамлаш ва республикада халқ таълим тизimini янада ривожлантириш тўғрисида” янги қонун қабул қилди. Аммо қабул қилинган бу янги қонунда белгиланган чора-тадбирлар ҳам қоғозда қолиб кетди. Ўз-ўзидан маълумки бу қонун ҳам халқ таълим тизимида ҳеч қандай ижобий кўрсаткични намоён қилмаган, муаммолар ўз ечимини топмай тизим ўзгаришсиз қолди.

Ўтган асрнинг 60-йиллари Ўзбекистон ССР тарихига “ривожланган социализм” босқичи деб эълон қилинганлиги билан кирган. Ҳар қандай жамият ҳукумат томонидан эълон қилинган янги йилда жиддий ва изчил ислохотларни кутади¹. Худди шундай ўша даврда ўзбек жамияти ҳам мамлакат раҳбариятидан ижтимоий-иқтисодий ва маданий-маърифий соҳаларда сифат жиҳатдан жиддий ўзгаришларни амалга оширишни кутмоқда эди. Бироқ, жамият кутгандек ўзгаришлар амалга оширилмади. Аксинча аҳвол яхшиланиш ўрнига ёмонлашди. Сиёсий ҳукмрон доиралар ақидапарастликни, оммавий-сиёсий ишларни авж олдирди. Бу тизим ўз-ўзидан халқ таълим тизimini ҳам ўз гирдобига тортиб кетди. Расмий ҳокимият сохта пролетар байналмилаллигини амалда кучайтириш мақсадида мактабларда рус тили ва адабиётини кенгрок ўқитишга урғу берди. Натижада 60 йилларда Ўзбекистон тарихи, ўзбек тили ва адабиёти, чет тиллари, мусиқа ва кўшиқчилик дарслари ҳажми кескин қискарди ва улар ўқув режасида белгиланганидан ҳафтасига 16,5 соатга камайиб кетди. Улардан бўшаган соатларда эса рус тили ва адабиёти предмети ўқитилди. Масалан, ўқитувчилар “XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида ўзбек адабий-бадиий муҳити”, “Миллий маданий жараёнлар” тўғрисидаги мавзуларда дарс ўтиши лозим бўлган соатларда рус маданиятининг “прогрессив” аҳамиятини кўрсатиб беришга мажбу бўлдилар. Ниҳоятда бой ва кўҳна ўзбек халқи тарихини ўрганишга 52 соат ажратилган ҳолда бошланғич мактабларда рус тили ва адабиёти предметлари учун 1600 соат ажратилди². 70-80 – йилларга келиб ҳам Ўзбекистон ССР мактабларида аҳвол сифат жиҳатдан ўзгармай қолаверди. Бунга сабаб эса умумтаълим мактабларида жаҳон тажрибаларидан, замонавий техника ва ўқитиш воситаларидан фойдаланиш йўлга қўйилмаган эди. Бу йилларда мактаблар, ўқувчилар, ўқитувчилар сони йилдан-йилга ортиб борганлигини, сон кўрсаткичлари кишини ҳайратга

¹ История развития среднеспециального образования в Каракалпакстане (1925-2000 гг) (на примере Ходжейлийского училища). Дис. Калилаев А.- Нукус.2003.С.222.

² Очерки развития общеобразовательной школы советского Узбекистана.-Т.: Укитувчи.1974.С.43.



солар даражасида ортганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Мисол учун 1945/46 ўқув йилида жами 4525 мактаб бўлиб, уларда қарийб 998 минг ўқувчи ўқиган бўлса, 1970/71 ўқув йилида республиканинг умумий таълим мактаблари сони 7072 тага, уларнинг ўқувчилари эса 3 млн 164 мингга етди. Бироқ юқорида келтирилган статистик рақамлар моҳият жиҳатдан халқ таълим тизимида мавжуд аҳволнинг яхшиланишига хизмат қилгани йўқ¹. Мактабларнинг моддий-техник базаси ўша ҳолатда қолганди. Мактабларнинг сифат даражаси (айниқса, қишлоқ мактаблари) анча паст эди. Чунки кўкларга кўтариб макталган “ривожланган социализм” босқичи ҳам 20-30 йилларда шаклланган қолдиқ принципларининг ижтимоий оқибатларини йўқота олмаган эди. 1970-80 йилларда халқ таълими учун давлат томонидан ажратилган маблағ 11% дан 8% га камайиб кетди. Республиканинг барча вилоятларидаги мактабларнинг 20-60% и зарур ўқув қуроллари, асбоб-анжомлар билан жиҳозланмай қолаверди, 50% дан ортиқ мактабларда иссиқ овқат буфетлари ташкил этилмади. Қуни узайтирилган гуруҳлар иши аиниқса ўлда-жўлда қолди. 70-80-йилларда 1-8-синф ўқувчиларининг атиги 8-9 % ини бундай гуруҳларга жалб этилган эди ҳолос².

Хулоса қилиб айтганда умумтаълим мактабларининг фаолияти асосан “ривожланган социализм” ғоясини ўқувчиларга сингдириш, уларни “коммунистик руҳда” тарбиялашдан иборат бўлди. Коммунистик тарбиядан кўзланган мақсад эса ёшларни “пролетар интернационализм”га, “катта оғага” содиқлик, синфийлик, партиявийлик руҳида тарбиялашдан иборат эди. Миллийлик эса ўзбек мактаблари мазмунидан чиқарила бошланди. Мактаблардаги тарбия Европа тарихи мисолида олиб борилди. Европа маданияти, тарихи амалда байналмилаллик намунаси сифатида талқин этилди. Шунини айтиш мумкинки: Биринчидан, Ўзбекистон ССРда таълим тизимининг такомиллаштирилишига асосий тўсиқ бўлиб мустамлакачиликнинг мустабид тузуми бўлди. Иккинчидан, Совет ҳукмрон доираларининг юртимизга асосан хомашё базаси сифатида қараши бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. История развития среднеспециального образования в Каракалпакстане (1925-2000 гг) (на примере Ходжейлийского училища). Дис. Калилаев А.- Нукус.2003.С.222.
2. Очерки развития общеобразовательной школы советского Узбекистана.-Т.: Укитувчи.1974.С.43.
3. Развитие педагогического образования в Узбекистане. Рахмонова А.- Т.:Укитувчи.1966.С.58-59.
4. Народное образование в Узбекистане Шарипов Р.-Т.:Укитувчи.1977. С.67.

¹ Развитие педагогического образования в Узбекистане. Рахмонова А.-Т.:Укитувчи.1966.С.58-59.

² Народное образование в Узбекистане Шарипов Р.-Т.:Укитувчи.1977. С.67.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA BOLAGA SAMARALI TA'LIM-TARBIYA BERISH

Erejepova Minayim Omirzakovna -
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qo'ng'iro't tumani 25-sonli Maktabgacha ta'lim
tashkiloti direktori

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash haqida so'z etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiya, bola, Davlat standarti, ta'lim jarayoni.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda, maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda, ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda, xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda, qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolani to'laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishini ta'minlaydi. 2020 yil 22 dekabrda O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802 - sonli qarori qabul qilindi. Bunda, Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Davlat standartining asosiy vazifalari esa, maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash, milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish, o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo'lgan sanitariya-gigiyenik talablarni belgilash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish me'yorlarini tartibga solish va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsion vositalar bilan jihozlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, olti-yetti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim-bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning



jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual

xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiy rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko'nikma va faoliyatning turli ko'rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi. Ta'lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi ta'minlanadi, zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi, dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi va jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi.

Adabiyotlar

1. U.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish Toshkent. 2014
2. Djuraev R.H., Turg'unov S.T. Nazirova G.M. Pedagogika. –T., O'zPFITI, -2013



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI INSHO YOZISHGA TAYYORLASH

Fayziyeva Nafosat Akmalovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

XTBga qarashli 30- umumiy orta

ta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini insho yozishga tayyorlash va uning ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: insho, o'quvchi, o'qituvchi, boshlang'ich sinf, ta'lim, mavzu.

Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi. Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorgarlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi.

Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi uch bosqichga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;

2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;

3) inshoni nutqiy shakllantirish, ya'ni insho matnini tuzish, uninyozish, takomillashtirish, xatolarni to'g'rilash va uni tekshirish. Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish.

2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish.

Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq.

Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur.

Insho yozish uchun 2-sinfda odatda bir dars, zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15—20 daqiqa, 3—4-sinflarda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun 20—25 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktuatsion, nutqiy, mantiqiy xatolar va mazmundagi yetishmovchiliklar ustida ishlanadi.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15—25 daqiqa vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi). O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi.

Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.

2. Rasmi reja asosida matn rejasini tuzish.

3. Reja qismlariga mos ravishda matnni xatboshilarga bo'lish va har birini xatboshidan yozish.

4. Insho matnini mustaqil tekshirish va takomillashtirish. O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borгани sayin, inshoga talab ham orta boradi.

Adabiyotlar:

1. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o'rgatish metodikasi. - T.: „O'qituvchi11, 1996.



SINF DAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Ruzimova Feruza Madrimovna
UrDU Pedagogika va psixologiya
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifasi, sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashning psixologik ahamiyati to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy ishlar reja, bilimdonlik va zukkolik yuzasidan musobaqalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, kollej, maxalla, dustlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muxit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va xokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi barcha xayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda uzaro xamkorlikning ta'sir doirasi orkali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan xolda uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish.

Tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlariga xamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chikib amalga joriy etishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini xar tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: - yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, xayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi xissini uyg'otish; o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy xamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka xosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish; xar bir o'smarning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli soxalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit xozirlash; insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mexribonlik, shafkatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga tokatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (noxaqlikka, yolg'onchilik, tuxmat, chaqmchilikka toqatsizlik) keng qo'llanishi lozim; vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning ximoyasi uchun xamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga xurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madxiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash; qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga xurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat xislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, Insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya; sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila soxibi bulish istagini shakllantirish; yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish. Tarbiyaning asosiy tizimi quyicha bo'lishi lozim: tarbiya - tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, xar bir bola, o'smir va yosh yigit qizning betakror va o'ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy xuquqi va erkinligini e'tiborga olish; yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish; milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish; shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga xurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mexribonlarcha munosabatda bo'lish.

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi bolalarni qamrab olishga aloxida ahamiyat berish lozim. O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta xayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu xaqiqiy xayot bilan yashaydilar. Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangen xolda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Guruhdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi



shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit- qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Maktabda tarbiyaviy ishlar rejalarini tuzish va uni amalga oshirishda yana quyidagi vazifalarga e'tiborni qaratish ham muhimdir:

- o'quv tarbiyaviy ishlarni yuksak darajada tashkil qilish, o'quvchilar dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida har bir fanni ma'naviy ma'rifiy ruhda o'qitish; mustaqillik va ma'naviyat mavzuida; darslar tashkil etish; tarixiy yodgorliklar, ma'rifiy maskanlar, san'at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlarga o'quvchi yoshlarning o'lkashunoslik va ekskursiyalarini tashkil qilish; Vatanimiz tarixiga oid to'garaklar ishini jonlantirish; "yil professori", "yil o'qituvchisi" tadbirlarini o'tkazish jarayonida ishtirokchilarning ma'naviy ma'rifiy, axloqiy, tarbiyaviy ishlarda ishtirokiga e'tibor qaratish; ijtimoiy kafedra o'qituvchilari, xotin qizlar uyushmasi hamkorligida o'quvchilar o'rtasida "Odob saboqlari", "Odobnoma", "Hayot va turmush odobi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazish; barcha sinf va guruhlarda "Vatan tarixini bilmay turib, uni to'la sevib bo'lmaydi", "Vatan ostonadan boshlanadi" mavzuida davra suhbatlari, viktorina, ilmiy tarbiyaviy soatlar o'tkazish; harbiy sport to'garaklari ishlarini yanada jonlantirish guruhlarda mardlik jasurlik darslarini tashkil etish; mahallalarda "Ayol madaniyati", "Qizlar iffati", "Ayol ma'rifati", "Ayol tarbiyachi ustoz", "Ayol ko'ngil malhami", "Ayol tadbirkor", "Ayol jamiyatning faol ishtirokchisi" kabi mavzularda suhbatlar, uchrashuvlar (kechalar) va ilmiy amaliy anjumanlar o'tkazish; jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkor, huquqshunos, ta'lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog'liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish; o'quvchi qizlar ongini umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar, milliy istiqlol va mustaqillik mafkurasi asosida shakllantirish hamda ularning oila va jamiyat ishlarida faolligini oshirish maqsadida maktabda "Qizlar klubi" yanada jonlantirish; ma'naviyat va ma'rifat borasidagi yangiliklardan muntazam xabardor bo'lib turish maqsadida jurnal va gazetalarga obuna bo'lishni tashkil etish; sinf xonalari orasida "namunali xona", "namunali qavat" ko'rik tanlovlarini muntazam tashkil etib borish; o'quvchilar va professor o'qituvchilar o'rtasida muntazam ravishda milliy an'analimiz va urf odatlarimizni tarannum etuvchi ko'rik tanlovlarni tashkil qilish; maktabda an'anaviy sport musobaqalarini o'tkazishda milliy o'yinlarimizga alohida e'tibor qaratish; muallimlar va o'quvchilarning Xiva shahridagi teatrlarga, muzeylarga, diqqatga sazovor bo'lgan joylarga jamoa bo'lib borishlarini tashkil qilish; maktab o'qituvchilari va o'quvchilarini shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari, mehnat faxriylari kabi taniqli kishilar bilan uchrashuvlarini uyushtirib borish.

Bularning barchasi ma'naviy va ma'rifiy ishlarning mazmuni va yo'nalishini anglatuvchi tadbirlardir. Zero, maktab o'quvchilari orasida bo'ladigan ma'naviy va ma'rifiy ishlarni shartli ravishda bir necha majmua (blok) ga bo'lgandik. Ana shu majmualar bo'yicha tuzilgan rejalar yoshlarga ma'naviy tarbiya berishning qanday saviyada ekanligini ko'rsatuvchi mezonidir.

Adabiyotlar

1. Jo'rayev A. Tarbiyaviy darslarni o'tish. Guruh rahbarlari uchun qo'llanma, Toshkent : O'qituvchi, 1994. 388 b
2. Karimova V., Umarov A., Quronov M. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari.- Toshkent : "Yangi asr avlodi", 2001 . 254 b
3. Munavvarov A. K. Pedagogika. Toshkent, : «O'qituvchi» , 1996. 482 b



ОНА ТИЛИ О'QITISH METODIKASINING АНАМИЯТИ

Sharipova Muxlisa Hasanovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

XTBga qarashli 30-umumiy o'rta ta'lim
maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili o'qitish metodikasining ahamiyati va uni boshqa sohalar bilan aloqadorligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: til, ona tili, metodika, fan, darslik, nutq, gap, o'quvchi.

O'quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchi va talabalarining nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og'zaki ravishda bayon qilish orqali u o'z ona tilini ham mukammal o'rganib boradi.

Dunyoni bilish nazariyasi ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bo'lib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutushimiz lozim: til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir; tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi; maktabning vazifasi tilni aloqa-kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sadi. Amaliyot kishi bilimining manbai va harakatlantiruvchi kuchi, haqiqat mezon va bilim tojidir. Analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzdagi jonli nutqiy aloqaga, to'g'ri talaffuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, uzlashtirgan qoidalarini amaliyotga tatbiq etadilar. Metodika bilish nazariyasidan tashqari, yangi fanlar, xususan, psixologiya, pedagogika ma'lumotlariga tayanadi. Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini, ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi. Metodika psixolingvistika bilan ham bog'liq. Metodikaga psixolingvistika nutq haqida, uni talab qiluvchi sabablar, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, metodika, didaktika, umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasi ona tilning ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi. Shuning uchun ona tili - lingvistika metodikasining muhim asosi hisoblanadi. Savod o'rgatish metodikasini ishlashda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasallishini o'rganishda so'z yasallishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishda, to'g'ri yozuvga o'rgatishga orfografiya nazariyasiga asoslanadi. O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasvirik vositalarini hisobga olish zarur. O'quvchilarga ona tilni o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Gulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi“, 1992
2. J. G' . Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: „O'qituvchi“, 2004.



ЭФФЕКТИВНЫЕ ПРИЕМЫ И СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Тешаева Лола Буриевна

Преподаватель спецшколы-интерната
искусства маком имени
А.Фитрата города Бухары
(91) 405 56 11

В настоящее время современное образование находится в ситуации модернизации. В образовательном пространстве начала XXI века особое значение приобретает модель личностно-ориентированного (личностно развивающего) обучения.

«Личностно-ориентированная модель обучения представляет собой воплощение гуманистической парадигмы образования. В самом общем плане личностно-ориентированный тип обучения может быть охарактеризован как обеспечивающий развитие личности, поддержку ее индивидуальности, полноценное удовлетворение ее образовательных, духовных, культурных, жизненных потребностей и запросов, представляющий ей свободу выбора содержания и путей получения образования, а также способов самореализации в культурно-образовательном пространстве».

В соответствии с этим типом обучения современная школа и современный учитель должны не только обеспечивать учащихся знаниями по различным предметам школьного курса, в частности по предмету «Русский язык», они должны, в первую очередь, развивать и воспитывать личность школьника.

Трудно переоценить значение речи в жизни человека и общества в целом как средства передачи знаний и опыта, накопленного человечеством, как средства духовного развития, воспитания, образования, как средства установления межличностного и группового контакта, средства воздействия и влияния друг на друга. Значение речи всегда осознавалось обществом, и поэтому вопросам развития речи детей неизменно во всех известных системах дошкольного и школьного образования уделялось большое внимание.

На современном этапе обучение на уроках русского языка должно строиться с учетом необходимости формирования у учащихся различных коммуникативных умений и навыков: умений понять тему сообщения, логику развития мысли, извлечь нужную информацию, проникнуть в смысл высказывания – *слушание*; навыков изучающего *чтения*; умений ведения диалога и построения монологического высказывания – *говорение*; умений собирать и систематизировать материал, составлять план, строить высказывание в определенном стиле, отбирать языковые средства, совершенствовать высказывание – *письмо*.

Результативность уроков русского языка находится в прямой зависимости от того, насколько рационально организована сменяемость устных и письменных заданий, как продумана взаимосвязь устной и письменной речи учащихся, созданы ли условия для преодоления учениками трудностей, возникающих при переходе от мысли к речи, от речи к мысли.

Специальные психолого-педагогические исследования показали, что наиболее эффективным является комплексное обучение речи, при котором умения воспринимать устную и письменную речь (аудирование и чтение) формируются в сочетании с умениями строить устное и письменное высказывание (говорение и письмо). В каждом виде речевой деятельности, помимо специфических для него умений и навыков, формируются и умения, общие для всех видов деятельности, в частности такое базисное, исходное умение, как понимание информации.

Рассмотрим такой вид речевой деятельности, как *слушание (аудирование)*. «Слушание – это смысловое восприятие звучащей как говоримой, так и озвученной письменной речи». Рассматриваемая разновидность речевой деятельности сопутствует человеку с самых первых лет его становления. Без слушания невозможно общение в повседневной жизни, невозможно усвоение информации как в школе, так и за ее пределами. Как показали исследования, специальное обучение слушанию благотворно влияет на развитие речевого слуха, речевой памяти, на формирование устной речи, в частности ее выразительности, на усвоение норм произношения и правописания.

Глобальное восприятие предполагает восприятие текста в целом, когда слушающему при известных обстоятельствах достаточно определить (более или менее развернуто), о чем



шла речь в высказывании, какова его основная мысль. Вопросы учителя типа: так о чем шла сегодня речь на уроке (или: я говорил на уроке)? Что же главное я хотел сказать (доказать, объяснить)? О чем говорится в тексте? Как можно озаглавить текст? и т.д. - развивают именно глобальное восприятие, с которым мы встречаемся в жизни. Когда нам важно осмыслить только тематику радио- и телепередач, понять главное в высказываниях нашего собеседника.

Детальное восприятие предполагает, как явствует из названия, осознание если не всех, то, безусловно, самых главных смысловых блоков текста – в зависимости от установки, которая дается говорящим или которую ставит перед собой слушающий. Такая установка сопутствует подробному пересказу (изложению). И если ученик пересказывает повествование, он должен прочувствовать последовательность действий, лежащих в его основе, их временные, причинно-следственные связи и т.д.

Критическое восприятие основывается и на глобальном, и на детальном восприятии, но, кроме того, оно требует критического осмысления воспринятого на слух: выражения своей точки зрения на то, о чем говорится в тексте, мотивированного согласия или несогласия с основной мыслью автора, его аргументацией и т.д. Установка на критическое восприятие текста практикуется в том случае, когда проводится изложение с дополнительным заданием, поисковое задание, в котором используется текст.

Каждый раз, когда учитель призывает учащихся внимательно слушать, он, в сущности, обучает этому умению, но далеко не всегда это осознают и дети, и сам учитель. Между тем внимание эффективнее всего организуют мотивация предлагаемого задания, установка на восприятие, контроль за выполнением задания: «Мы учимся обсуждать спорные вопросы. Постарайтесь понять другую точку зрения, тогда сможете убедительно раскрыть свою, возразить»; «Вы должны оценить ответ товарища и свою отметку мотивировать, объяснить, обосновать» и т.д.

Известны следующие виды работ по развитию умения слушать:

- повторение учащимися высказанной учителем установки-задания;
- запись во время слушания слов, обозначающих конкретные наименования фактов, всего, что слушатель считает нужным запомнить, например тезиса высказывания, спорного положения и т.д.;
- составление набросков плана;
- конспектирование, составление тезисов;
- многократное прослушивание магнитофонной записи и т.д. предполагающее критическое осмысление услышанного, оценку как сути, так и формы изложения.

Устная и письменная речь как типы речевой деятельности реализуются во взаимосвязанных речемыслительных процессах – восприятии и воспроизведении высказывания, обусловленных ситуацией общения. Созданная на уроке при активном привлечении межпредметных связей речевая среда становится стимулом для порождения речевой деятельности разных типов и видов. В этой деятельности, максимально приближенной к условиям протекания естественной коммуникации, формируются коммуникативные умения, обеспечивающие как восприятие, так и создание высказываний.

Следует отметить, что организация на уроке речевых ситуаций и выполнение учащимися различных видов ситуативных упражнений не самоцель, а средство формирования коммуникативных умений и навыков школьников, способ накопления материалов для сочинения. Так как письменная речь развивается, если она сопоставляется с уже усвоенной устной речью, считается возможным и необходимым разумное чередование устной и письменной форм речи на уроках русского языка, в частности на уроках развития речи.

Литература

1. Бабкина М.В. О взаимосвязи различных видов речевой деятельности учащихся на уроках русского языка.// Русский язык в школе. – 2004. -№ 2
3. Ковалева Г.С., Красновский Э.А. Новый взгляд на грамотность.// Русский язык. – 2005. - № 14.
4. Линецкая Л.М. Развитие речевой культуры младших подростков на уроках русского языка и во внеучебной работе. – Ростов н/Д.: Феникс, 2007
10. Ясинская С.Г. Виды и приемы чтения.// Русская словесность. – 2007. - № 2



ОНА ТИЛИНИ О'QITISHDA METODLARNING АНАМИЯТИ

Tòrayeva Anora Komilovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

ХТВга qarashli 30- umumiy o'rta ta'lim
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish sifatli ta'limning asosidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogic texnologiyalar maktab o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommalaviylashgan turlaridan biri interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amalyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasida doimiy faollik ta'minlanadi.

O'quvchilarga rasmiy topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. O'quvchilarning topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

Mashqlar metodi. O'quvchilarning ona tilidan olgan bilim-malakalari turli mashqlar orqali mustahkamlanadi. Natijada o'quvchilar: a) bilimlarni ongli o'zlashtira boradilar; b) bilimlarni amalda qo'llay oladigan bo'ladilar; v) fikrlash malakalari ham orta boradi, mashq davomida til dalillarini ko'proq kuzatadilar, solishtiradilar, umumlashtira-dilar; g) o'z nutq madaniyatini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Mashqlar o'quvchilarning anglash va bora-bora o'quv faoliyatlarini yaxshilaydi: ayrim dalillarni yodlab olish yo'li bilan ham puxta o'zlashtira boshlaydilar. Shunday ham bo'ladiki, ko'p yozish yo'li bilan ko'p yozish tufayli o'quvchida ayrim so'z shakllarini yoki tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ketaverish ko'nikmasi shakllanib qoladi. Mashqlar qat'iy bir tizim asosida o'tkaziladi. Dastlab, o'quvchilar matn ustida ishlaydilar, so'z va gaplarni guruhlaydilar. Bular grammatik shakllarni anglash mashqlari hisoblanadi. Maktablarda bunday mashqlarning misollar tanlash, chizmalar ustida ishlash, matnni shaklan o'zgartirish kabi turlari o'tkaziladi.

"Sayohat" metodi. Sayohat metodi ko'proq tarix, geografiya, biologiya, adabiyot fanlarida ko'proq qo'llanib, ona tili o'qitishda nisbatan oz qo'llansa ham mohiyat e'tibori bilan ona tili o'qitishda o'ziga xos o'rin tutadi. Sayohat ko'proq insho yozish uchun material beradi, shuning uchun o'quvchi, masalan, muzeyda insho mazmuniga mos bo'lgan predmet va uning belgilariga alohida e'tibor beradilar, ana shu tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni yozib olish lozim. 5-sinf o'quvchilari bilan "Shevaga xos so'zlar" mavzusini o'rganishda sayohat metodidan foydalanish mumkin. Har bir o'quvchi bilan alohida ishlash natijasida o'rganilganlarni ko'proq takrorlash va mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Darslarda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktikuslubiy masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.

2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.



“ТИКУВ БУЮМЛАРИ ТЕХНОЛОГИЯСИ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАЪЛИМНИНГ КЎРГАЗМАЛИЛИК ТАМОЙИЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАСАВВУР КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Арипжанова Махфуза Акмаловна,
Тошкент тўқимачилик ва енгил
саноат институти ассистенти
Телефон: +998971250082
aripjanova83@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада таълимнинг кўргазмалилик тамойили ва “Тикув буюмлари технологияси” фанини ўқитишда таълимнинг кўргазмалилик тамойилидан фойдаланиш орқали талабаларнинг тасаввурини ривожлантириш йўллари ёритилган.

Калит сўзлар: билим, кўникма, малака, ихтисослик, кўргазмалилик, анимация, тасаввур

Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарф этмай, қисқа вақт орасида муайян назарий ва амалий билимларни талабаларга етказиб беришдан иборат бўлиб, бунга эришиш учун эса бир қатор омилларга аҳамият бериш талаб этилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон Фармони билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясида ҳам замонавий таълимни самарали ташкил қилиш бўйича бир қатор вазифалар белгиланган [1].

Бизга маълумки ихтисослик фанларни ўқитиш жараёни ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, бошқа умумий ва умумкасбий фанларга нисбатан кўпроқ амалий кўникма ва малакаларни шакллантиришни тақозо этади. “Тикув буюмлари технологияси” фани кийимларга ишлов бериш, яъни устки кийим, енгил кийим ва трикотаж буюмлари узелларини тикишни ўргатувчи фан бўлиб, ушбу фанни ўзлаштиришда талабаларнинг амалий кўникмаларини шакллантириш муҳим ҳисобланади.

Бунга эришиш учун эса таълимнинг кўргазмалилик тамойилидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Таълимнинг кўргазмалилиги шуни тасдиқлайдики, агар билим олувчиларда ўрганилаётган жараёнларни, нарс ва ҳодисаларни бевосита идрок қилиш билан боғлиқ муайян ҳиссий амалий тажриба бўлсагина улар билимларни онгли суратда ўзлаштирадилар ҳамда уларда тасаввур ва тушунчалар ҳосил бўлиши мумкин. Бу тамойил ўқитиш жараёнида турли сезгилардан: кўриш, эшитиш, тана сезгилари, ҳид билиш, таъм билиш ва бошқалардан фойдаланишни талаб этади. Талабалар тикилаётган буюмни қанчалик ҳар томонлама идрок қилишса, уларнинг шу буюм ҳақидаги билими ҳам шунчалик тўла ва чуқур бўлади. Кўргазмалилик тамойили ўқитиш мақсадларига мос бўлиб, ўзлаштирилаётган материалнинг мазмуни билан белгиланади. Кўргазмалилик бу билимларни яхшироқ ўзлаштириб олишга ҳамда уларни ҳаёт билан, меҳнат амалиёти билан боғлашга ёрдам беради. Машғулотларда турли хил кўргазмали воситаларни қўллаш билим олувчиларнинг фикрлаш фаолиятини фаоллаштиради, тасаввурларини бойитади. Шунинг учун кўргазмали воситалардан ихтисослик фанларини ўқитишда, яъни талабаларнинг янги материални идрок қилишларида, билимларни мустаҳкамлашда, текшириш ҳамда амалий фаолиятда ва ишда қўллашларида, меҳнат кўникмалари ва малакаларини ҳосил қилишда татбиқ этилади.

Техника ва технологиялар ривожланаётган даврда ушбу кўрсатмаларни видео, матн, жадвал, график, товуш, объектларнинг фазодаги ҳаракати, анимациялардан, турли кўргазмали материаллар, тарқатма материаллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ [2]. Ишлов берилаётган кийим узелини тикиш технологик тартибини анимация шаклида кўрсатиш маълумотни талабалар хотирасида қолишига, берилган топшириқни яхши ўзлаштиришларига, талабаларда қизиқишни, фаолликни ва тасаввурини оширишига, улар хотирасида берилаётган маълумотларнинг яхши сақлаб қолинишига ва керакли вақтда маълумотларни амалий қўллай олишга туртки бўлади. Бизга маълумки, инсон маълумотларни ўзлаштириш даражаси ўқиган вазиятда – 10%, эшитган вазиятда – 20%, кўрган вазиятда – 30%, эшитган ва кўрган вазиятда – 50% хотирада қолади. Шу кўрсаткичларни



инобатга олсак, анимацион дастурлардан фойдаланиш юқори натижа беради[4].

Умуман айтганда “Тикув буюмлари технологияси” фанини ўқитишда таълимнинг кўргазмалилик тамойилидан фойдаланиш талабаларни ўрганилаётган мавзуни тасаввур қилишларига ва тўлиқ ўзлаштиришларига, ўрганилган маълумотларни келажакда ўз соҳаларида амалиётга тадбиқ қилишларига, яъни танлаган йўналишлари бўйича етук мутахассис бўлиб етишишларига омил бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон Фармони билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси.

2. Д.Н.Ашурова. Электрон таълимни ташкил этишда ўқув анимациялардан фойдаланиш. (<https://journal.fledu.uz/uz/elektron-talimni-tashkil-etishda-%D1%9E%D2%9Buv-animacziyalardan-fojddalanish/>)



ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПОНЯТИЯ КАК УЧЕБНЫЕ ЕДИНИЦЫ

Тураева Гулрух Мухитдиновна

учительница русского языка

30-й общеобразовательной школы

Кызылтепинского района Навоийской области

Аннотация: в статье анализируется применение и важность языковых понятий на уроках русского языка в школах.

Ключевые слова: лингвистика, лексика, школа, курс,

Лингвистические понятия, используемые в школьном курсе русского языка, охватывают все разделы науки о нем. В раздел «Фонетика» включены следующие понятия: звуки; гласные; гласные ударные и безударные; согласные; согласные звонкие и глухие, мягкие и твердые, парные и непарные по мягкости-твердости, по звонкости-глухости; слог, ударение; чередование гласных и согласных. Кроме того, в некоторых школьных учебниках используются понятия шипящих и сонорных согласных, а также описываются функции звуков речи. В совокупности перечисленные понятия, отражая существенные признаки звуковой системы русского языка, составляют основы знаний о ней.

Для описания звуков вводятся основные элементы транскрипции: знак мягкости и квадратные скобки. В раздел «Лексика и фразеология» включены следующие понятия: слово, лексическое значение слова, многозначные и однозначные слова, прямое и переносное значение слова, омонимы, синонимы, антонимы, общеупотребительные слова, диалектные слова, профессиональные слова, эмоционально и стилистически окрашенные слова, заимствованные слова, устаревшие слова, неологизмы, фразеологизмы. Часть этих понятий характеризует лексику русского языка с точки зрения значения слов, часть – с точки зрения их употребления или происхождения. В учебники по русскому языку введены необходимые для практики понятия из области лексикографии: толковый словарь, словарная статья, помета в словарной статье, словарь иностранных слов.

Словообразовательная система русского языка в разделе «Словообразование» описывается с помощью понятий, характеризующих строение слова (морфемику) и производство слов: окончание, нулевое окончание, основа; корень, приставка, суффикс; однокоренные слова; способы образования слов – приставочный, суффиксальный, бессуффиксный, приставочно-суффиксальный, сложение, переход слова из одной части речи в другую, сложное слово, соединительная гласная, сложносокращенное слово.

В разделе «Морфология» представлены понятия, описывающие слово как часть речи: часть речи, форма слова, начальная форма слова; части речи самостоятельные и служебные; имя существительное, имя прилагательное, имя числительное, местоимение, глагол, причастие, деепричастие, наречие, категория состояния, предлог, союз, частица, междометие, звукоподражательные слова.

Для характеристики изменяемых самостоятельных частей речи отобраны понятия, описывающие их постоянные признаки (присущие слову в целом) и непостоянные (характеризующие словоформу). В тему «Имя существительное» включены следующие понятия: одушевленные и неодушевленные существительные собственные и нарицательные, род существительных, склонение, падеж, число, несклоняемые существительные, разносклоняемые существительные.

Тема «Имя прилагательное» располагает следующими понятиями: разряды прилагательных по значению – качественные, относительные и притяжательные; краткие и полные прилагательные; степени сравнения прилагательных (сравнительная и превосходная, простая и составная), падеж, число, род. Об имени числительном сообщается то, что они бывают количественные и порядковые, простые и составные; количественные числительные – дробные, собирательные; склонение, имеют категорию падежа.

Литература:

1. Бабайцева, В. В. Русский язык : теория : учеб. для 5–9 кл. общеобразоват. учреждений / В. В. Бабайцева, Л. Д. Чеснокова. – М. : Просвещение, 1995.



ТАЛАБАЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ РИВОЖЛАН-ТИРИШДА ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК МОДУЛИНИ РОЛИ

Ҳомидов Ҳусниддин Купайсинович

Бухоро муҳандислик-технология институти

3-курс таянч докторанти

Телефон: +998(99) 709.99.46

Аннотация. Маскур мақолада талабаларни миллий қадриятлар асосида ватанпарварлик руҳида тарбиялаш йўналишлари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек талабаларни аجدодлар қолдирган бой маънавий мерос билан ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳақидакида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Талаба, Ватан, ватанпарварлик, миллий ғоя, миллий қадриятлар, таълим-тарбия, маънавият, маданият, маърифат, оила, маҳалла, таълим муассасаси.

Талабаларнинг ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мамлакатимизда амалга оширилаётган ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор йўналишлари ва асосий принциплари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, ҳозирги мураккаб глобаллашув даврида, ахборот-коммуникация технологиялари шиддат билан ривожланиб бораётган шароитда талабаларнинг ҳарбий-ватанпарварлик туйғусини ривожлантириш, тарбиялаш билан боғлиқ долзарб вазифалар ва уларни ҳал этиш йўллари, давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотлари, оила, маҳалла, таълим-тарбия институтларининг бу борадаги роли ва аҳамиятини, ўзаро ҳамкорлигини миллий ва халқаро ҳуқуқий нормаларни ҳисобга олган ҳолда белгилаб беради.

Талабаларнинг ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласига жисмонан ва маънан соғлом авлодни тарбиялашга оид яхлит таълим-тарбия тизимининг узвий ва ажралмас қисми сифатида қаралиб, Ўзбекистон Республикасини 2017 — 2021 йилларда ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси талабалари асосида миллий ва жаҳондаги илғор тажрибалар, бугунги Ўзбекистон ҳаётидаги реал ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда такомиллаштириш масаласига алоҳида эътибор қаратилди.

Она-Ватанимизни кўз қорачиғидек асраш, унинг шуҳратини дунёга тараннум этиш билан боғлиқ энг муҳим тушунчалар, ҳаётий ва профессионал кўникмаларни илм-маърифат асосида ёшларнинг қалби ва онгига илк болалик давридан бошлаб сингдириб бориш орқали Ўзбекистоннинг ҳақиқий ватанпарвар талабаларни тарбиялаш асосий мазмунини ташкил этади.

Талабаларнинг ҳарбий-ватанпарварлик туйғусини ривожлантириш, тарбиялаш — бу миллий, тили ва касбидан қатъи назар, талабаларда Ватанга садоқат туйғусини шакллантириш, уларни ўз фуқаролик бурчи ва конституцион мажбуриятларини бажаришга, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилишга қодир баркамол авлод этиб тарбиялашга йўналтирилган давлат органлари, жамоат бирлашмалари ва бошқа ташкилотларининг кўп босқичли, тизимли, мақсадли ва мувофиқлаштирилган фаолиятидир.

Ватан остонадан бошланади. Бу гап бежиз айтилмаган, талабаларнинг киндик қони тўкилган, туғулиб ўсган, тарбия тапган, тузунни тотган ватаннинг ҳар бир қарич ерини асраб – авайлаш ҳар бир талабаларнинг мажбурияти, қолаверса, шаънидир. Талабаларда Ватаннинг ижтимоий, иқтисодий, маънавий юксалиб бориши учун ўзининг ҳалол меҳнати билан хизмат қилиши таълим-тарбия орқали ўқитирилган. Шундай экан, ҳар бир талабалар туғилиб ўсган Ватанининг равнақи учун ўз ҳиссасини қўшишга ва ҳалол меҳнат билан сидқидилдан хизмат қилишга масъулдир.

«Шу азиз Ватан барчамизники. Уни бахт-саодати, ёруғ истиқболи, фаровон келажаги учун яшаш, курашиш, керак бўлса жонни фидо қилиш шу муқаддас заминда яшаётган ҳар бир инсон учун бахтди»[3.116–117]. Ватан келажаги, халқининг бахт-саодати учун миллий ғурури юксак талабалар курашади. Миллий ғурур эса миллий ўзликни англаш билан бевосита боғлиқдир. Миллий ўзликни англаш ўзи дунёга келиб ўсган оиласи, маҳалласи, Ватанини севиш, ота-онаси, қариндош-уруғлари, дўсту биродарлари, халқи, миллийга чуқур ҳурмат ва эҳтиромдир. Уларнинг шажараси, ўтмиш авлод-аждодлари, касб-кори, ахлоқий-маънавий қадриятларини мукаммал билиш ва улардан фахрланиш ҳисси демакдир. Халқ ичида она



деганда – Ватан, Ватан деганда эса она тасаввур этилишида ҳам мажозий маъно бор.

Ватанпарварлик тарбиясининг асосий мақсадлари:

- Талабаларда ўз халқига садоқат, Ватан тарихига ва анъаналарига чуқур ҳурматда бўлишни шакллантириш;

- талабаларда қонунлар, Президент фармонлари, Олий Мажлис ва Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорларини сўзсиз бажаришга тайёрлик руҳида тарбиялаш;

- Ўзбекистон халқлари жанговар анъаналарини тарғибот қилиш, талабаларда юксак маънавий - жанговар хислатлар, ҳарбий қасамёд ва ҳарбий низомларни бажаришда шахсий жавобгарлик ҳамда жасурлик, интизомлилик, зукколик, ўз Ватани ҳимоясига доимо тайёр бўлишни тарбиялаш.

Ватанпарварлик тарбиясининг асосий мазмуни:

- ўз Ватанини ҳимоя қилишда Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг Конституцион бурчини тушунтириш;

- Республика мудофаасини келгусида кучайтириш масалалари бўйича Ҳукумат қарорлари билан танишиш;

- Ўзбекистон Республикаси Қуrolли Кучлари билан ҳал қилинадиган масалаларни, уларнинг вазифаси ва хусусиятлари тушунтириш;

- Ўзбекистон Республикаси «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғриси»ги, ҳарбий Қасамёд ва Умумҳарбий Низом талабларини ўрганиш ва ўзлаштириш;

- талабаларни ҳарбий хизматга тайёрлашда мақсад ва вазифаларини тушунтириш;

- ўтган ота-боболаримиз жанговар анъана удумларини тарғибот қилиш.

Қуйидагилар талабаларнинг ҳарбий-ватанпарварлик туйғусини ривожлантиришда оила, маҳалла, таълим-тарбия институтларининг асосий вазифалари ҳисобланади:

Талабаларнинг миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш;

Миллий армиямизга жисмонан бақувват ва маънан етук талабалар зарурлиги, ҳарбий хизмат ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун муқаддас бурч экани ҳақидаги тушунчани ҳамда бу борадаги назарий-амалий кўникмаларни мустаҳкамлаш;

Талабаларнинг ён-атрофимиз ва жаҳонда рўй бераётган сиёсий-ижтимоий жараёнларга миллий манфаатларимиздан келиб чиққан ҳолда ёндашиш кўникмаларини, турли ички ва ташқи таҳдидларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш;

Ҳар қандай мураккаб вазиятларда тезкор ва мустақил қарор қабул қилиш, замонавий ҳарбий-техника воситаларидан самарали фойдаланиш малакасига эга талабаларни тарбиялаш;

Ўзбекистон манфаатларини нафақат ҳарбий соҳада, балки ҳаётнинг барча жабҳаларида ҳимоя қилишга тайёр туриш, юрт учун фидойи бўлиш — бу бугунги кун талаби эканини ҳаётий мисоллар ва таъсирчан воситалар орқали ёшлар онгига сингдириб бориш.

Талабаларнинг жисмоний ва маънавий қобиляти, етакчилик кўникмалари ва интеллектуал салоҳияти, умумий ва профессионал малакасини ошириш, уларни ўз устида мунтазам ишлаш, соғлом ҳаёт кечиришга ундаш ва шунга эришишни назарда тутати. Ушбу босқичда қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратиш лозим

Талабаларнинг ҳар томонлама етук, интеллектуал ва маънавий салоҳияти юксак, ота-она ва Ватанга садоқатли инсонлар этиб тарбиялашнинг аҳамияти тўғрисидаги тасаввур ва билимларни янада бойитиш;

Ватан ҳимоясига доимо тайёр бўлиш ва Қуrolли Кучлар сафида хизмат бурчини ўтаётган ёшлар билан фахрланиш, конституцион бурч ва Ватанга қасамёдга содиқлик туйғуларини шакллантириш;

- талабаларнинг ўз танлаган касбини пухта эгаллаши ва етук мутахассис бўлиб етишиши учун яқиндан кўмаклашиш;

- китобхонликни кенг тарғиб этиш, жамиятда юксак маънавиятни қарор топтиришда бадиий асарларнинг роли ва аҳамиятини ёшлар онгига сингдириш;

- миллий мафкурамизга зид бўлган ёт ғояларга қарши танқидий қараш ва мафкуравий иммунитетни, ўзига ишонч, ҳушёрлик ва огоҳлик туйғуларини мустаҳкамлаш;

- ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги, давлат органлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан ҳамкорликда чақирув ёшидаги талабаларни ва ҳарбий хизматчиларни доимий асосда ахлоқий-руҳий, маънавий-маърифий тайёрлаш, шунингдек,



уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларда юксак маънавий-ахлоқий сифатлари ва фаол ҳаётий позициясини шакллантириш, содир бўлаётган ҳодисаларга дахлдорлик ва Ватан тақдирини учун уларда жавобгарлик туйғусини мустаҳкамлаш;

Ҳарбий хизматчилар ва чақирув ёшидаги талабаларни ахлоқий-руҳий жиҳатдан етук этиб тарбиялаш ишларини ташкил этиш, шунингдек, таълим муассасаларида бошланғич чақирувгача бўлган ёшларни тайёрлашни ташкил этиш жараёнини назорат қилиш, таълим муассасаларининг ўқув-моддий базасини такомиллаштириб бориш, ёш авлоднинг ҳуқуқий саводхонлиги ва ижтимоий фаоллигини ошириш;

- талабаларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, спорт билан мунтазам шуғулланишга кенг жалб этиш, жисмонан соғлом ва баркамол авлод этиб тарбиялаш;

Хулоса қилиб айтганда, талабаларимиз қалбида ватанпарварлик туйғусини ривожлантириш ҳар бир ота-онанинг, тарбиячи-мураббийларнинг, жамоатчиликнинг Ватан олдидаги бурчларидир. Бу бурчни ҳалол, пок фидойилик ва жасорат билан бажарган инсонгина ҳақиқий ватанпарвардир. Фидокорликни намоён этиш учун маънавий муҳит, маънавий фаолият, маънавий ўзликни англаш тизимини яратиш ва шу асосда ёшларда ватанпарварлик фидойилик хусусиятларини шакллантириш ҳар бир фуқаронинг, ота-она ва жамоатчиликнинг асосий вазифасидир.

Ватанпарварларимиз бор экан, юртимиз янада раванг топиб, халқимиз фаровон бўлиб бораверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ш.М.Мирзиёев "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз" Тошкент "Ўзбекистон" -2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон,
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 116–117.
4. Олимов Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. Тошкент, "Fan va texnologiya", 2015,
5. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.02.2018 й., 09/18/140/0816-сон; 24.03.2020 й.,



О ВЕДУЩИХ МОТИВАХ ВОВЛЕЧЕНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ В ДЕСТРУКТИВНЫЕ РЕЛИГИОЗНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ

Айрапетова Алена Геннадьевна

доктор философии (PhD) по психологическим наукам
tera-incognita@mail.ru +998977849449

В научном докладе представлена проблема вовлечения молодёжи в деструктивные религиозные организации. Приводятся статистические данные по возрастному диапазону участников террористических организаций. Продемонстрированы ведущие мотивы, на основании которых осуществляется вовлечение в деструктивные религиозные организации.

Ключевые слова: религиозность, сознание, деструктивная религиозная организация, мотив, побудительный фактор, внутриличностный конфликт, дезадаптант, социальное аутсайдерство, эскапизм, социальная среда, референтный субъект, гиперопека, педагогическая запущенность, потребность.

Процесс демократизации в нашей стране в полной мере отразился на всех направлениях жизни, в том числе, на духовной сфере, существенно возрос уровень религиозности населения, возобновили или начали вновь свою деятельность многие мечети, монастыри, духовные учебные заведения.

Указанные аспекты привели к устранению «идеологических сдержек», формированию новых государственно-конфессиональных отношений, принятию принципиально нового законодательства о свободе вероисповедания, в полной мере соответствующего всем международным правовым нормам.

Однако неослабевающая угроза терроризма и политического экстремизма, облачённых в маску религии, оказывающие разрушающее влияние на сознание и мировоззрение людей, продолжает оставаться актуальной. Одной из приоритетных проблем в указанном сегменте является значительное «омоложение» деструктивных религиозных организаций.

По данным социологов, 70% совершивших преступления по мотивам религиозной вражды и ненависти - это молодые люди в возрасте от 18 до 29 лет, а средний возраст террориста-смертника составляет 18-27 лет [1].

Под деструктивной религиозной организацией понимается

авторитарное, жёстко структурированное объединение, противоправная деятельность которого, замаскированная исполнением религиозных обрядов, сопряжена с насилием над гражданами, причинением вреда их физическому и психическому здоровью, побуждением их к отказу от исполнения гражданских обязанностей, или к совершению иных противоправных деяний.

Какие мотивы выступают основой религиозно-экстремистской деятельности? Безусловно, существуют политические и экономические проблемы, каждая из которых по отдельности или в комплексе может стать побудительным фактором для вовлечения в деструктивные религиозные организации. Вместе с тем без социально-психологического аспекта данный процесс был бы невозможным.

Анализируя мотивы вовлечения, специалисты в области социопсихологии религии указывают на то, что естественная потребность людей жить в духовной защищённости вынуждает их обращаться к религии как к основе моральных ценностей, особенно в кризисные периоды. Неспособность адаптироваться к условиям резко меняющихся общественных отношений влечёт за собой развитие различных форм поведения, отклоняющегося от общепринятых социальных норм, в том числе, приверженность различным псевдо религиозным культам, оккультным сообществам и деструктивным религиозным организациям.

В целом, мотивационным драйвером, как правило, выступают внутриличностный конфликт между недостаточными персональными ресурсами и высоким уровнем ценностей потребительского характера, неудовлетворенность духовных потребностей, фрустрационные состояния, связанные с жизненными перспективами.

Именно указанные социально-психологические мотивы подталкивают к поиску новой простой, понятной и доступной системы ценностей. В этой связи необходимо подчеркнуть, что



особенностью доктрин всех деструктивных религиозных организаций является упрощённая модель картины мира и перспективы на будущее, стандартизация и чёткое нормирование поведения, то есть именно то, что является предметом притязаний «дезадаптантов» - людей, находящихся в конфликтных отношениях с ближайшим социальным окружением. Данные интерперсональные конфликты могут быть основаны на полученных психологических травмах и потрясениях, заниженной самооценке, социальном аутсайдерстве, внутренней неудовлетворённости своей жизнью, системой ценностных ориентаций и установок [2].

Говоря о ведущих мотивах приобщения молодёжи к деструктивным религиозным организациям, следует упомянуть и такое явление как эскапизм - уход от обыденной реальности, разрыв со сложившимися в обществе стандартами и нормами поведения. Стремление уйти от действительности обычно возникает в результате потери веры в собственные силы и возможности вследствие безуспешных попыток адаптироваться к социальной среде.

Аналитические материалы зарубежных специалистов показывают, что рекрутеры деструктивных религиозных организаций (особенно с уклоном на агрессивный фанатизм) эксплуатируя эскапизм, мотивируют молодых людей тем, что в случае вступления в организацию они гарантировано получают питание, проживание, сексуальные отношения, высокооплачиваемую работу, возможность самореализации - то есть интересную и увлекательную жизнь среди единомышленников и друзей по вере. На фоне обыденной не всегда позитивной реальности, в которой присутствуют социальная неустроенность, коррупция, материальные проблемы, сложности с трудоустройством и проживанием, данное предложение звучит как альтернатива тому миру, в котором молодой человек не может самореализоваться [3].

Еще одним мотивом вовлечения молодёжи в деструктивные религиозные организации является поиск молодыми людьми нового референтного субъекта в связи с утратой родителями своего авторитета и эффективных методов влияния на взрослеющих детей. Причём, данная мотивация может быть актуальна как при педагогической запущенности, так и в ситуации с гиперопекой.

При несостоятельности семейного воспитания у молодых людей в качестве ведущего мотива выступает устойчивая потребность в поиске родительского прототипа на стороне. Такой референтной фигурой при позитивном сценарии может стать, например, преподаватель в учебном заведении, тренер спортивной секции, взрослые товарищи в дворовой компании. При неблагоприятном развитии ситуации в качестве родительского прототипа может быть выбран лидер, куратор или опытный член деструктивной религиозной организации.

В семьях, где наоборот родители практикуют гиперопеку, юноши и девушки «застревают» в постпубертате, практически не имея адекватной возможности полноценно взрослеть. Гиперопекаемые испытывают трудности с социализацией, самоконтролем, формированием собственной картины мира, в результате чего нередко становятся зависимыми от чужого мнения. При этом, говоря «чужое», мы имеем в виду не только и не столько родителей, но и агентов негативного влияния со стороны асоциальной среды.

И здесь необходимо подчеркнуть, что молодые люди из семей с гиперопекой, привыкшие к постоянному психологическому надзору и управлению со стороны родителей, достаточно сложно генерируют собственные решения. Вырвавшись из-под тотального контроля, они стремятся к самостоятельности, однако инфантильность сводит на нет любые попытки занять значимое место и эффектно предъявить себя социуму.

Кроме того, выход из-под гиперопеки, как правило, сопровождается довольно жёсткой конфронтацией или открытыми конфликтными столкновениями между родителями и взрослеющими детьми, побуждая последних к бунту и агрессивной презентации своей новой жизненной позиции.

Молодые люди из семей с педагогической запущенностью тоже стремятся к социальной обустроенности. Однако общество вместо принятия в свою иерархию часто отвергает и тех, и других из-за несоответствия установленным стандартам. У одних высокий уровень адаптации в силу постоянной потребности выживать в сложных социально-психологических условиях, но низкий уровень образованности и эрудиции по причине педагогической запущенности. У других - достаточно развит интеллектуальный потенциал, но не сформированы навыки применения на практике полученных знаний в виду интернального



локуса контроля и пассивной социальной позиции ведомого.

Не зависимо от типа неадекватной родительской опеки, представители социальной группы «молодёжь» достаточно остро переживают чувство отчуждения, которое возникает в ситуациях социального аутсайдерства. Именно оно выступает ещё одним мотивом вовлечения молодых людей в деструктивные религиозные организации, где они рассчитывают получить удовлетворение потребности в укреплении личностной идентичности, ощутить принадлежность к группе, стать причастным к обладанию так называемой «высшей истиной», уникальным путём спасения своего народа (или даже всего человечества).

Следует отметить, что мотивация вовлечения в деструктивные религиозные организации многоаспектна и зависит от множества факторов, поэтому исследователи по-разному определяют сущность и приоритетность мотивов. Известный публицист Д.В. Ольшанский выделяет следующие типы мотивации, которые используют рекрутеры:

- Меркантильные мотивы (материальная привлекательность терроризма и экстремизма как сферы деятельности);
- мотив вынужденного участия в деятельности деструктивной религиозной организации под влиянием родственных связей;
- товарищеские мотивы;
- мотив преобразования и активного изменения мира;
- мотив самоутверждения через власть над людьми;
- мотив мести за погибших родственников (друзей) [4].

Анализ субъективных движущих факторов, которыми руководствуются многие члены деструктивных религиозных организаций, свидетельствует о том, что жажда материального обогащения занимает одно из лидирующих мест в иерархии мотивов. Исследования о боевиках из разных стран, воюющих в Сирии и Ираке, проведенные The Soufan Group, показывают, что для определённого числа людей деятельность в рамках деструктивных религиозных организаций - это просто способ заработать деньги [5].

Достаточно распространённым мотивом приобщения к террористической и экстремисткой деятельности является «семейная традиция», в связи с тем, что «этим» занимается или занимался кто-то из родственников. Например, более 50% репатриантов, возвращённых в рамках спецпроектов «Мехр» в Узбекистан, выезжали в сирийско-иракскую зону, следуя за мужьями, завербованными членами международных террористических организаций, а 20% - вместе со своими рекрутированными родителями.

По аналогии с членами семьи, друзья и близкий круг общения могут стать мотивирующим фактором, способствующим вовлечению. Товарищеские мотивы, основанные на эмоциональной привязанности, играют значительную роль в возрастной группе «молодёжь». Если друг какого-то молодого человека имеет связи с лицами, ведущими террористическую деятельность, или сам является членом деструктивной религиозной организации, то радикализация и вовлечение в террористическую деятельность данного молодого человека практически неизбежны [6]. Дружеские или родственные контакты зачастую приводят к «совместной вербовке», при которой друзья или родственники присоединяются к террористической деятельности совместно.

К наиболее распространённым мотивам может быть отнесена следующая иерархия:

- потребность в доминировании, связанная с нереализованной возможностью занятия позиций лидерства в своей социальной среде;
- потребность во внутреннем комфорте (безопасности);
- потребность в подтверждении собственной позиции;
- потребность в сочувствии и понимании;
- потребность с помощью организации преодолевать давление со стороны других лиц (физическое, экономическое, политическое);
- потребность сотрудничества в разрешении «мировых» и «глобальных» проблем, стоящих перед обществом [7].

Американский профессор М. Креншоу указывает на пять групп мотивов, способствующих вовлечению в деструктивные религиозные организации:

- события, которые вызывают желание отомстить или совершить ответное действие (жестокость правоохранительных органов, убийство или насилие в отношении друга (родственника) и т.д.);



- отсутствие возможностей для участия в политической или общественной жизни, свободного выражения своего мнения или мнения группы;
- конкретные негативные факторы в микросоциальной группе;
- значимость принадлежности к сильной группе для развития собственной личности;
- вооруженный конфликт [8].

В заключении хотелось бы отметить о том, что мотивация вовлечения молодёжи в деструктивные религиозные организации представлена в довольно широком диапазоне: от меркантильных побуждений до потребности реализации аномальных ценностных ориентаций. В каждом конкретном случае мотив становится ведущим в зависимости от множества объективных факторов и субъективных личностных особенностей.

Однако, не смотря на достаточно чёткую этимологизацию мотивов, вопросы о том, что конкретно побуждает человека стать членом деструктивной религиозной организации, почему некоторые предпочитают оставить семью, друзей, карьеру ради преступной и опасной деятельности, призывающей к насилию, требуют более тщательного изучения.

Литература

1. Профилактика терроризма и экстремизма в молодежной среде. - СПб., 2018, с. 47.
2. Кузьменко Н.С. К вопросу о противодействии идеологии терроризма // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. - Крым, Том 3 (69), 2017. - с. 13-21.
3. Кудайбергенов К.Ш. Особенности вербовки в террористические организации // Материалы Научно-консультативного совета при АТЦ СНГ: сборник материалов. СПб., 2017. - с. 49.
4. Олышанский Д.В. Психология терроризма. - СПб., 2002. 215 с.; Белашева И.В., Ершова Д.А., Есаян М.Л. Психология терроризма // Учебное пособие - Ставрополь, 2016. - 120 с.
5. BEYOND THE CALIPHATE: Foreign Fighters and the Threat of Returnees, Syria, October 7, 2017.
6. Brett R. Young soldiers: why they choose to fight / R. Brett, I. Specht. - USA: Lynne Rienner Publishers, Inc., 2004. - p. 25.
7. Дашаев Р.Х. Портрет личности участника современной религиозной террористической деятельности // Вестник Краснодарского университета МВД России, 2013, № 6, с. 18-19.
8. Crenshaw M. The Causes of Terrorism / M. Crenshaw // Comparative Politics. - 1981. - № 4.- p. 379-399.



ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ ТРАЕКТОРИЯСИ АСОСИДА КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Маматқулова Кимёхон Абдужалиловна

Низомий номидаги ТДПУ

доценти в.б., п.ф.ф.д.(PhD)

Телефон:+99899443 34 06

Аннотация: Мақолада халқ таълими тизимида узлуксиз касбий ривожланиш муаммолари, малака ошириш тизимини узлуксиз - «ҳаёт давомида ўқиш» тамойили асосида такомиллаштириб бориш, малака ошириш соҳасида салмоқли натижаларга эришиш учун эътибор қаратилиши зарур бўлган масалалар. Шунингдек, узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш) билан шуғулланадиган муассасалар ва уларнинг бу жараёндаги вазифалари каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар: катталар таълими, андрогогика, узлуксиз касбий ривожланиш.

Узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш) соҳасидаги ўзгаришлардан бири бу малака ошириш соҳасида даврийлик (педагог кадрлар учун беш йил, раҳбар кадрлар учун уч йил каби муддатлар)дан воз кечилгани ҳамда эндиликда давомийлик тамойилига яъни “педагог ходимларнинг касбий маҳорати ва фаолият самарадорлигини мунтазам ошириб бориш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, малака ошириш тизимини узлуксиз - «ҳаёт давомида ўқиш» тамойили асосида такомиллаштириб боришга ўтаётганимиздир¹. Ушбу ҳолатни амалага ошириш учун Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан мутасадди ташкилотлар олдида кўплаб долзарб вазифалар қўйилди².

Албатта, қўйилган вазифалар бугунги давр талабларини инобатга олган ҳолда қўйилаётгани барчамизга маълум. Лекин, ҳозирда ушбу вазифаларни амалга оширишга узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш) билан шуғулланадиган муассасалар ва уларнинг педагогик жамоаси қай даражада тайёр, деган ҳақли савол туғилиши табиий.

Шунга кўра бугунги кунда халқ таълими тизимидаги мавжуд малака ошириш муассасаларини таҳлил қиладиган бўлсак, уларнинг кучли ва кучсиз томонларини, шунингдек уларнинг яқин (ташки) муҳитидан юзага чиқадиган имкониятлар ва таҳдидларни аниқлаган ҳолда ҳулоса чиқариш мумкин.

Таъкидлаш керакки, мазкур соҳадаги муассасаларнинг кучли томонлари Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан қўйилган вазифаларни бажаришда қўл келади. Бироқ, ушбу муассасаларнинг кучсиз томонлари ҳамда уларнинг фаолиятига бўлган таҳдидлар ҳозирда узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш) соҳасидаги ўзгаришларга тўсқинлик қилиши табиий. Шунга кўра, малака ошириш соҳасида салмоқли натижаларга эришиш учун бизнингча қуйидаги масалаларга эътибор қаратиш лозим. Улар:

1. Катталар таълими билан боғлиқ узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш)нинг ўзига хослигини англаш;

2. Педагогларнинг индивидуал таълим траекторияси асосида малака оширишни ташкил этувчи субъектлар ҳамкорлигини тўғри йўлга қўйиш;

3. Педагогларнинг индивидуал таълим траекториясини тузиш, касбий эҳтиёжларини англаш ва касбий ривожланиш харитасини шакллантира олиш кўникмаларига эга бўлишига эриш;

4. Узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш) соҳасида андрогог кадрлар сиёсатини тўғри йўлга қўйиш қабилар.

Биринчи масала, узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш)нинг ўзига хослигини англаш асосий масала ҳисобланади. Бинобарин, малака оширишнинг ўзига хослиги, унинг бошқа таълим босқичларидан фарқли жиҳатларини англамай туриб, кейинги ишларни

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 25 январдаги “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4963-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2021 й., 07/21/4963/0064-сон

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4884-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.11.2020 й., 07/20/4884/1484-сон.



амалга ошириб бўлмайди.

Иккинчи масала, педагогларнинг индивидуал таълим траекторияси асосида малака оширишни ташкил этувчи субъектлар ҳамкорлигини тўғри йўлга қўйишда ушбу вазифаларни амалга оширишга яъни, узлуксиз касбий ривожланиш (малака ошириш) билан шуғулланадиган муассасалар ва уларнинг педагогик жамоасининг жараёни тўғри ташкил эта олиши, таҳлил қила олиши, ҳар бир касбий ривожланишга жалб этилган педагогга индивидуал ёндаша олиш қобилиятига эга бўлган ишчи гуруҳни шакллантира олиши жуда муҳимдир. Барчамизга маълумки бугунги кунга қадар амалдаги барча малака ошириш муассасалари даврийликка асосланган аънавий малака оширишни ташкил этиб келган. Бизнингча, малака ошириш жараёнининг йиллик режага асосланган ҳолда ташкил этилишига малака оширишга бўлган эҳтиёжни аниқлашга масъул бўлган халқ таълими бўлимлари ва бошқармалари фаолиятида касбий эҳтиёжларни аниқлашнинг умумэтироф этган (халқаро) мезони ва механизмининг йўқлиги сабаб бўлган. Чунки, таълим тизимида фаолият олиб бораётган малака ошириш муассасалари бу ўринда фақат буюртмачи талабини бажарувчи бўлиб қолганлиги, уларда тингловчиларни эҳтиёжини мустақил аниқлаш ваколати йўқ эди. Бироқ бугунги давр талаби амалдаги ёндашувдан воз кечган ҳолда ривожланган мамлакатлар тажрибаси асосида ҳар бир касбий ривожланишни хоҳлаган соҳа вакилига индивидуал ёндашган ҳолда узлуксиз касбий таълим махсус электрон платформаси орқали эҳтиёжга қараб малака оширишига шароит яратиб беришни талаб этмоқда.

Учинчи масала, педагогларнинг индивидуал таълим траекториясини тузиш, касбий эҳтиёжларини англаш ва касбий ривожланиш харитасини шакллантира олиш кўникмаларига эга бўлишига эришиш. Яъни, педагогнинг индивидуал таълим траекториясини лойиҳалаштиришда масъулиятни тўлиқ англаб етишига шароит яратиш ва назорат қилиш, керакли маслаҳат бера оладиган мутахассислар билан ўзаро ҳамкорлик ўрната оладиган шаффоф муҳит яратиш, шунчаки кўзбоямачилик асосида натижаларни тақдим этишга йўл қўймаслик зарур. Бу жараён албатта, касбий ривожланишни (малака оширишни) хоҳлаган педагогнинг ўзи билан боғлиқлигини тўла қонли хис қилдириш зарурдир.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак: биринчидан, ушбу йўналишда хориж ва мамлакатимиз олимлари томонидан малака оширишнинг ўзига хослигини англаш бўйича таклиф этилаётган ёндашувларни ва шу қатори малака оширишда фақат давлат эҳтиёжларинигина эмас, малака оширувчиларнинг малака оширишга бўлган индивидуал эҳтиёжларини ҳам инобатга олиш;

Иккинчидан, бу жараён қанчалик шаффоф амалга оширилиши, буним, қачон ва қандай назорат қилади, бугунги кунда педагогнинг ўзи малака даражаси, билими, илмий-педагогик салоҳияти, иш тажрибаси, психологик тайёргарлиги ва индивидуал касбий ривожланиш траекториясини мустақил тузиш ва уни амалиётда натижалар орқали кўрсата олиш кўникмасига эгами деган саволларга ечим топиш бугунги куннинг долзарб масаласи ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 25 январдаги “Халқ таълими соҳасидаги илмий-тадқиқот фаолиятини қўллаб қувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4963-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2021 й., 07/21/4963/0064-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4884-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.11.2020 й., 07/20/4884/1484-сон.
3. Swanson, R.A. & Holton III, E.F. 2001. Berrett-Koehler Publishers, Inc: San Francisco.
4. Г.Ж.Туленова. Катта ёшдагиларга таълим бериш тамойиллари. А.Авлоний номидаги ХТТРМХҚТМОИ “Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини ислох қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари (2020 йил 29 май) 158-160 бетлар.
5. Учебно-методическое пособие «Особенности обучения взрослых», Ташкент: ИРК и ПКССПО 2011, 178 стр.
6. А.Х. Абдуллаев, Н.С. Раҳимов, М.О. Хадаев. “Катта ёшдаги аҳолини ўқитиш марказига: қадам-бақадам”, Тошкент, 2013 йил 56-бет.



ЎҚИТУВЧИЛАР ТОМОНИДАН ҚўЛЛАНИЛАДИГАН ПРОФИЛАКТИКА ИШЛАРИНИНГ ШАКЛЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ.

Мирахмедова Дилфуза Аскарвна

Тошкент вилояти Чиноз тумани Республика қиз болалар
ўқув-тарбия муассасаси ўқитувчиси

Тешабоева Холида Яқубовна

Тошкент вилояти Чиноз тумани Республика қиз болалар
ўқув-тарбия муассасаси ўқитувчиси
+9989990849778 x.nurmetov@cspi.uz

Аннотация: Мазкур мақолада ўқитувчилар томонидан қўлланадиган профилактика ишларининг шакллари ва усулларининг моҳияти, ўрни ва аҳамиятини очиб бериш, ўсмирлик даврида шахслараро муносабатлар шаклланишини аниқлаш, тенгдошлари билан мулоқот хусусиятларининг асосий йўналишларини таҳлил қилиш орқали ёшларга экологик тарбия бериш ва уларнинг таҳлили, анъанавий таълимга янгича ёндашувларни тадбиқ қилишнинг муҳим аҳамиятга эга эканлиги баён этилган.

Калит сўзлар: Профилактика, делинквент, аддиктив, психоонтогенез, интеллектуал, темперамент, экстерналлик, ассоциал, хронотизм, интернет.

Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий сиёсатида миллий ўзликни англаш, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзлаштириш орқали шахс билан жамият ўртасида уйғунликни вужудга келтириш муҳим аҳамият касб этади. Бу борада мамлакатимизда ёшлар, ўқувчи ва талабалар қобилиятлари, истеъдодлари, имкониятлари, ўзига хос индивидуал-психологик хусусиятларини тадқиқ этиш учун барча имкониятлар мавжуд. Ёш авлоднинг шахс ва субъект сифатида шаклланиши, ақлий ривожланиши, тарбияланганлик даражаси жамият томонидан белгиланган одоб-ахлоқ, ҳуққ меъёрларига мос бўлиши уларнинг комил инсон бўлиб етишишларига замин яратади, узлуксиз таълим-тарбия тизим самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг: “Бизни ҳамиша ўйлантириб келадиган яна бир муҳим масала— бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким — ёшлар. Майли, ёшлар ўз даврининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуғ зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо аксадо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? “Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан”, - фикрлари ёрқин далил бўлади. Тарбия — узок муддатли, кўп хусусиятли жараён. Бу жараён таълим, миллий, маънавий ахлоқий қадрият ва меъёрлар билан бевосита боғлиқ. Шу билан бирга, мамлакатимизда соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, маънавий-ахлоқий, жисмонан етук, ватанпарвар, миллий анъана ва қадриятларимизга садоқатли ёшларни вояга етказиш, уларни амалга ошириладиган кенг қўлланма ислохотларнинг фаол ва жонқуяр иштирокчисига айлантиришга қаратилган комплекс чора-тадбирлар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.05.2019 й. Н ПҚ-4342 сонли “Ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасалари фойятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” ги қарорида белгилаб қўйилган. Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, алоҳида шароитларда тарбиялаш ва таълим беришга муҳтож бўлган ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш мақсадида, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясига мувофиқ Республика ўқув-тарбия муассасаларига 14 ёшга тўлган ва 18 ёшдан ошмаган вояга етмаганлар, яқка тартибдаги профилактика иши олиб бориладиганлигига қарамай мунтазам равишда ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар содир қилишни давом эттираётган вояга етмаганлар суд қарори асосида жойлаштирилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бугунги кунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи орган ҳамда муассасалар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этган, ижтимоий-ҳуқуқий ҳимояга муҳтож, оғир ижтимоий аҳволда қолган, шу жумладан, оилавий муаммолар, турмушида зўрлик ишлатилишига дуч



келган вояга етмаганларни аниқлаш, улар билан яқка тартибдаги профилактик тадбирларни ўтказиш ва шу орқали соғлом турмуш тарзига қайтариш энг долзарб масалага айланди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги қонуни вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Хулоса ўрнида шунини айтиш лозимки, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш нафақат давлат органларининг, балки шу жамиятнинг аъзоси ҳисобланган ҳар бир инсоннинг вазифасидир. Энг аввало, ўзимиз, оила аъзоларимиз ва жамият олдидagi масъулиятни доимо ҳис қилиб яшаш, атрофдаги ҳодисаларга бепарволик билан муносабатда бўлмаслик, тинч ва осуда ҳаётимизнинг қадрига етиб яшаш барчамизнинг кундалик ҳаёт тарзимизга айланиши зарур.

Педагогик жараёнда ўқувчилар билан олиб бориладиган профилактика ишлари қуйидаги усулларга эга.

1. Онгни шакллантириш усуллари (ҳикоя, тушунтириш, суҳбат, маъруза, тарбиявий мунозаралар, бахс-мунозаралар, китоб билан ишлаш, мисол усули).

2. Фаолиятни ташкил этиш ва ижтимоий ҳуқ-атвор тажрибасини шакллантириш усуллари (жисмоний машқлар, машғулотлар, тарбиявий вазиятларни яратиш усули, педагогик талаб, кўрсатма, кузатиш, иллюстрация ва намойиш қилиш, лаборатория ишлари, репродуктив ва муаммоли-кидирув усуллари).

3. Фаолият ва ҳуқ-атворни рағбатлантириш ва рағбатлантириш усуллари (рақобат, когнитив ўйин, мунозара, ҳиссий таъсир, рағбатлантириш, жазолаш ва бошқалар).

4. Бошқариш усуллари (махсус диагностика, рўйхатдан ўтказиш ва ёзма сўров, назорат ва лаборатория ишлари, ўзини ўзи бошқариш).

Хулоса қилиб айтганда, ўқувчилар ҳуққидаги оғишлар деганда педагогик таъсирга қарши туриш, жамият томонидан белгиланган ахлоқий меъёрларга риоя қилмаслик, тартиббузарлик, юқори асаб тизими ривожланишидаги хусусиятлар (эмоционал бебардошлик, импульсивлик, таъсирчанлик, жиззакилик кабилар) ни тушунамиз.

Ҳар бир йигит-қизнинг ижодий имкониятларини аниқлаб, уларни ривожлантириш;

– ёшлар ижодкорлиги, иқтидорини юзага чиқариш, ҳуққидаги нуксонларни бартараф этиш;

– инсонпарварлик меъёрларига мос ҳислатларни шакллантириш, қонуний жамоа ахлоқи ва турмуш қоидаларига ҳурмат билан қарашни тарбиялаш, шахснинг ноёб қирраларини белгилловчи фуқаролик ва ижтимоий масъулият ҳисларини ривожлантириш;

– ўзи яшаётган мамлакатнинг равнақи, инсоният тараққиётини барқарор сақлаб қолиш йўлида ғамхўрлик қилишга ўргатиш;

– ўз халқи, давлатига, унинг ҳимояси учун ҳамиша шай бўлишни шакллантириш;

– меҳнатга ижодий муносабатни тарбиялаш, соғлом турмуш тарзи учун интилиш каби ҳислатларни ўстириш;

– ахлоқий фазилатларни (меҳрибонлик, шафқатлилиқ, адолатпарварлик ва бошқаларни) такомиллаштиришдадир. Бундай жараёнтинимсиз меҳнат, фидоийликни талаб этади. Жамиятимиз сафига соф фикр юритадиган шахсларни қўшади. Демак, оиладаги ҳар қандай вазият боланинг ривожланишига, ҳуққи ва одобига сўзсиз таъсир этади. Шу сабабли оилада ота-онанинг паст таълимий даражасини, суёт ота-оналик салоҳиятини ва оилавий низоларни бартараф этиш лозим. Оилада бола тарбияси туғилган куниданок бошланади. Бола оилада бошланғич ва асосий тарбияни олади. Унинг мактабда ўқиши, ўртоқлари орасида ўзини тута олиши, ўқитувчининг топшириқларини ўз вақтида бажариши буларнинг ҳаммаси боланинг ёшлиқда оилада олган тарбиясига боғлиқдир. Шунинг учун оилаларда аввалом бор фарзанд руҳиятига, саломатлигига, одоб-ахлоқига, тарбиясига жуда катта эътибор бериш жоиз. Оила, мактаб, маҳалла ҳамкорлигида тизимли ишларни барқарорлаштириш мақсадимиз сари етаклайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Толипова Ж.О. А., У. ШОЮСУПОВА ПСИХИАТРИЯ, -Тошкент Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти 2008.

2. А. Қ. Мунавваров ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ. –ТОШКЕНТ «ЎҚИТУВЧИ» 1996

3. Исмоилов А. Экологик таълим-тарбия. –Тошкент. Ўқитувчи, 1997.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
